

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**АЛИСҲЕР НАВОИЙ НОМИДАГИ САМАРҚАНД ДАВЛАТ
УНИВЕРСИТЕТИ**

Қўлёзма ҳуқуқида

УДК

ҚАРШИЕВ КОМИЛ АБДУКАРИМОВИЧ

“РАУФ ПАРФИ ШЕЪРИЯТИДА МАКОН ВА ЗАМОН”

Магистр

Академик даражасини олиш учун ёзилган диссертация

Иш кўриб чиқилди ва

**Илмий раъбар:
проф.Ҳасанов Ш.**

ҳимояга рухсат берилди.

Ўзбек тилшунослиги

кафедраси мудири:

Проф.Абдуасидов А.

Илмий раҳбар:

ПРОФ. Ҳасанов Ш

Самарқанд-2012

MUNDARIJA

Kirish	3
I BOB. Makon va zamon kategoriyasi hamda uning Rauf Parfi she'riyatida aks ettirilishi.....	
1.1 Epik turda makon va zamon masalasi.....	
1.2 Dramatik turda makon va zamonning o'rganilishi.....	
1.3 Lirik turda makon va zamonning o'rni.....	
II BOB. Rauf Parfi she'riyatida badiiy xronotopning qo'llanilish xususiyatlari.....	
2.1 Xronikal tasvirda makon va zamonning aks ettirilishi.....	
2.2 Rauf Parfi she'rlarida lirik makon va zamon vazifasini bajaruvchi leksik birliklar.....	
III BOB. Rauf parfi ijodida badiiy xronotopning assotsiativ tasvirda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	
3.1 Makon va zamonning ramziy obrazlarda ifoda etilishi.....	
3.2 Kontrast usulida zamoniylar va makoniylar tushunchalarning voqe bo'lishi.....	
Umumiy xulosalar.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	

KIRISH

Badiiy adabiyot maxluqotlar gultoji bo'lgan insonda ong, qobiliyat, tuyg'u kabi xususiyatlarning rivojlanib borishi natijasida dunyoga kelgan va bugungi kungacha insonning ma'naviy-axloqiy jihatdan takomillashuviga xizmat qilib kelmoqda, millionlab qalblarni ezgulik unsuri bilan sug'ormoqda.

“Ma'naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi. Hammasining zaminida tarbiya yotadi ¹. Tarbiyaning eng oily ko'rinishlaridan biri erk va haqiqat kuychisi Cho'lpon ta'kidlaganidek, adabiyot orqali “ko'ngil kirlarini yuvishdir”. Shuning uchun ham, taniqli adabiyotshunos Izzat Sulton: Badiiy adabiyot hamma uchun qiziqarli va foydali bo'lgan juda ko'p muammolarni, dastavval, ijtimoiy va axloqiy masalalarni qamrab oladi. Insoniyat psixologiyasi va intilishlarining mushtarakligi tufayli bir xil vakili tomonidan shu xalq hayotiga asoslanib yaratilgan asar agar yuqori g'oyaviy va badiiy saviyada yozilgan bo'lsa, o'z-o'zidan yer yuzining hamma joylaridagi kishilar uchun qiziqarli bo'lib qoladi².” – deya so'z qudrati bilan butun banibasharga ma'naviy ta'sir ko'rsata olish mumkinligini izohlagan.

Demak, badiiy adabiyot omma sezimiga mo'ljallangan bo'lib, shaxsiy, ma'naviy, axloqiy salohiyatini kamol topishiga xizmat qiladi. Bunda u o'zining birqator ilmiy-nzariy kategoriyalariga ega bo'lishi lozim. Masalan, g'oya, sujet kabi asosiy elementning poetik qonuniyatlariga mos tarzda ishlatilishi o'ziga xos kategoriyalarni hosil qiladi. Bu kategoriyalarning eng asosiylaridan biri badiiy asarning hayotiyligi va haqqoniyligini taminlovchi makon va zamon kategoriyasidir. Bu tushuncha adabiyotshunoslikda xronotop deb ham nomlanadi. Badiiylikning birinchi qonuni “hayotni buzmay haqqoniy tasvirlash demakdir”.

¹ Каримов И. Ўзбекистон мустақиллика эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011 й. 432 бет.

² Султон(ов) И. Адабиёт назаряси. – Т.: Ўқитувчи, 2005 й. 47 бет.

Mazkur qonuniyatni istisno qilmagan holda badiiy asarlarning tub hayot falsafasi yotishini anglashimiz mumkin.

Adabiyotshunoslik ilmidan ma'limki, badiiy adabiyotning tasvir predmeti – inson hisoblanadi. Adabiyotda inson tasvirlanar ekan, undagi ijobiy yoki salbiy xususiyatlar qaysi adabiy turda bo'lishidan qat'iy nazar ma'lum obrazlarga yuklatiladi. Bu obrazlar rus adabiyotshunosi M.M.Baxtin ta'kidlaganidek, hamma vaqt aniq makon va zamon bilan bog'liq bo'ladi¹. Aniqrog'i, sujetni harakatga keltiruvchi obrazlar ma'lum makon va zamonda tasvirlanishi shart. Negaki bu o'quvchini badiiy yaqinlikka olib kelish uchun, uni asar mohiyatiga qiziqtirish uchun badiiy haqiqatga ishontirish kerak bo'ladi.

Lirik tur miqiyosidagi makon va zamo kategoriyasining ayrim nazariy tomonlarini Rauf Parfi O'zturk ijodi misolida o'rganish bugungi kun adabiyotshunosligida yangilik sifatida xizmat qilishi mumkin. Ishning debochasi qismini shoir she'riyati va shaxsiyatiga qisqacha nazar solish bilan boshlash, bizningcha, maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy o'zbek adabiyoti, ayniqsa, she'riyatining xilma-xil yo'nalishda rivojlanayotganligi uning yorqin istiqbolidan dalolatdir. Modernizm bugungi uzbek she'riyatidagi jiddiy uslubiy yo'nalishlardan bo'lib, milliy poeziyamizning yanada tarovatli va ta'sirchan bo'lishini ta'minlayotir. Bugungi uzbek she'riyatida o'ziga xos yo'nalish yaratgan shoir Rauf Parfi milliy modern she'riyatining asoschilaridan biri va eng yirik vakilidir, Rauf Parfi 1943-yilning 27-sentyabrida Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumaniga qarashli Sho'ralisoy qishlog'ida dehqon oilasida tug'ildi. Otasi — Parfi Muhammadamin o'g'li anchagina o'qimishli kishi bo'lib, sho'rolar quvg'ini davrida Farg'onaning Vodil kishlog'idan Sho'ralisoyga kelib qolgan. Onasi - Sakinaxonim Isabek qizi ham zavki baland, kitob kurgan, mumtoz adabiyotni biladigan ayol bo'lib, u kishi ham asli farg'onalik edi.

Rauf Parfi 1950 yilda Sho'ralisoydagi yetti yillik maktabga o'qishga boradi va u yerda 1956 yilgacha yeaboq oladi. So'ng qo'shni qishloqdagi maktabga o'tib,

¹ Бактин М.М. Литературно – критические статси. М., 1968. С. 122

bu yerda 1958 yilgacha tahsilni davom ettiradi. Sakkizinchi sinfni tugatgach, o'q_ishni Yangiyo'l shahridagi kechki maktabga o'tqazib, mehnat faoliyatini boshlaydi. U dastlab Yangiyo'l tuman gazetasida *musuhyu* bo'lib ishlaydi. O'rta ma'lumot olgach, 1960-yilda Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning jurnalistika fakultetiga o'qishga kiradi. U yerdagi saboqlar 1965-yilda bitgan bo'lsa-da, shoir "Markscha-lenincha falsafa" deb atalmish fandan o'tolmagani va qayta imtihon topshirishni istamagani uchun universitet diplomini ololmaydi.

Rauf Parfi 1966-1967-yillarda Yangiyo'lda chiqadigan "Kolxoz xaqiqati" gazetasida muxbirlik qiladi. 1967-yilda Toshkentga kelib, Kinomatografiya davlat qo'mitasida muharrir bo'lib ishladi. 1971-1977-yillarda G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida muharrir lavozimida faoliyat ko'rsatdi. So'ng "Oydin" gazetasida, 1987-yilgacha yana G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida mehnat qildi. 1987-1989-yillarda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi, 1989-yildan 1997-yilgacha uyushma Targ'ibot markazida katta muharrir, 1997-1999-yillarda "Jahon adabiyoti" jurnali bo'lim mudiri vazifalarida ishladi. Iste'dtli shoir Rauf Parfi O'zturk 2005-yilning 28-martida yurak xastaligidan vafot etdi.

Olamga o'ziga xos ko'z bilan qaraydigan, uning boshqalardan yashirin go'zalligini payqay biladigan Rauf Parfi bolaligidan kitobga o'ch edi. O'z davrining taniqli kishilaridan biri Hamroqul Tursunqulovning qarindoshi bo'lgani uchun uning uyidagi juda boy kutubxonadan bimalol foydalanar, kecha-yu kunduz u yerdan chiqmay, kitob o'qirdi. Uning kitobsevarligi shunchalik ediki, deyarli tushunmasa-da, rus tilidagi kitoblarni ham qatorlashtirib o'qib tashlayverardi.

Rauf Parfining dunyoqarashi va badiiy didi shakllanishida otasining yaqin o'rtog'i, uzbek mumtoz adabiyotining yirik biimdoni, taniqli g'azalnavis shoir Abdurahmon Vodiliining ta'siri katta bo'ldi. Vodiliy ta'sirchan o'smirga chinakam she'riyat, uning badiiy joziba qudrati to'g'risida gapirib berar, sanoqsiz misralarni misol tariqasida yoddan keltirib, Raufni hayratga solardi.

Rauf Parfining birinchi she'ri 1953-yilning 5-martida o'n yoshida Stalin vafotiga bag'ishlab yozilgan marsiya bo'ldi. U maktabning devoriy gazetasida bosilgan. Taqdirni qarangki, ijodini insoniyat tarixidagi eng yovuz jallodning o'limiga marsiya she'r yozishdan boshlagan bolakay ulg'aygach, inson erki va huquqlari uchun kurashuvchi ijodkor bo'lib yetishdi. Sal o'tib, iste'dodli o'smirning she'rlari tuman gazetasida chop etila boshladi. Universitetning birinchi bosqich talabasi ekanida uning qalamiga mansub "Laylo" she'ri millat yoshlarining eng sevimli qo'shig'i sifatida kuylanardi.

Shoirning birinchi she'rlar kitobi — "Karvon yo'li" 1968-yilda bosildi. Shundan keyin turli yillarda uning "Aks sado" (1970), "Tasvir" (1973), "Xotirotn" (1975), "Ko'zlar" (1977), "Qaytish" (1978), "Sabr daraxti" (1986), "Sukunat" (1989), "Tavba" (2000), «So'nggi vido» (2005) kabi she'riy kitoblari chop etildi. O'zbek adabiyoti rivoji va milliy ma'naviyat shakllantirishidagi ulkan xizmatlari uchun 1999-yilda Rauf Parfiga "O'zbekiston xalq. shoiri" unvoni berildi.

Har qanday adib ijodining mohiyatini uning shaxsiyatidan qidirgan ma'qul. Negaki, ijodkor hamisha o'z shaxsiyati doirasida va uning darajasida mavjud bo'ladi. Chunki ijod jarayoni va uning natijasida ham asosan yaratuvchi shaxsning qirralari namoyon bo'ladi. Rauf Parfi she'rlari sinchiklab o'qilsa, shoirning hamishalik norozilik ruxi sezilib turadi. **U, birinchi navbatda**, o'zidan norozi. Negaki, shoir o'zining nuqsonsiz odam emasligini biladi, ezguliklar qilgisi keladi, ammo bunga imkon topolmaydi. Dunyo hodisalaridan mazmun talab etadi, lekin o'z shaxsiy hayotiga h_{am} tuzukroq. mazmun berolmayotganini anglaydi. Shoir o'z noroziligining sabablari haqida xam o'ylaydi, bu to'g'rida xayolga toladi va shunday badiiy to'xtamga keladi: "*Men kuyinib sevaman, netay, Men kuyinib so'zlayman, xolos*". Bu haqda taniqli shoir Asqad Muxtor: "Rauf Parfi - yaralari ochiq shoir. Unda hazinlik ko'p, ora-chora shunchaki marsiya xam yozib tashlaydi, tushkunlik alomatlari ham uchraydi. Men buni shoirning aybiga yo'ymasdim. Shoir insoniy dardlardan xoli bo'lolmaydi. Rauf Parfi esa, shoir sifatida o'zligini to'laroq ifodalashga intiladi", — deganida tamomila haq edi.

Rauf Parfi ko'pchilik katta iste'dod egalari singari eng baland ideallarga, eng yuksak natijalarga intiladi. Uning qalamiga mansub: **"Yarim dunyunga kerakmas fakat, Butun Koi-notni zabt etmagi shart"** misralarida shoirlarning shaxsiyatiga xos shu jixatlar ko'rsatiladi.

R. Parfi olamni biror kamchiliksiz ko'rgisi keladi. Atrofdagi nohaqlik, dunyoning bir dunyo kirlikka to'laligi, qirg'inlar, zo'ravonlik, adolatsizlik, zulm shoirni norozi qiladi. Uning she'riyatidagi murossasizlikning ildizi ayni shu yerda.

Shoirning: **"Agar yurak yutib kilsam oshkor, So'zlarim zulmga otilgan o'kdir"** tarzidagi iqrori xam shaxsiyatining, ham ijodining mohiyatini aks ettiradi. U muayyan bir tuzum yoki tizimga emas, umuman, dunyoning kirligiga, nohaqlikka muxolifatda turadi. Inson ko'nglidagi kirlik, aldov va nopokliklarga qarshi borishga urinadi. Shoir erkin ruh egasi bo'lgani uchun ham har qanday qolipga, tartibga, intizomga o'z-o'zidai qarshi bo'laveradi. Ijtimoiy intizom va tartib bilan shoir go'yo o't bilan suvday bir-biriga ters. Shoir murossasizligi shundan. Uningcha, ijodkor uchun murosa, qoniqish o'lim demakdir.

Rauf Parfi alohida olingan bir insonning ichki olamini tasvirlashga intiladi. U o'zini tanimoqqa urinayotgan, o'zligini topishga intilayotgan kishilar ruhiyatini chizadi. Shoir olam ham, odam ham jo'n emasligini yaxshi bilganidan ularni jo'n tushungisi, izohlagisi, tasvirlagisi kelmaydi. R. Parfi — hayot haqiqatlarini ko'rsatishdan ko'ra, ko'ngil haqiqatlarini, ruhiyat chinliklarini ifodalashga moyil. Hyech kim ko'rmagan holatni hyech kimga o'xshamaydigan tarzda ko'rsatish uning qismati. Bu hol "Diloromning ko'zlari" she'rida yakqol ko'zga tashlanadi:

*Ma'nos edi sening ko'zlaring goyat,
Go'yo yo'lsiz o'rmon barglarin to'kib,
Qora yorqinlikda shivirlar oyat,
Ko'zlaringni tinglayapman entikib.*

Shoir she'rda ko'zning ma'yusligini "yo'lsiz o'rmon", rangini "qora yorqinlik" deya suratlaydi. U ko'zni ko'ribgina qolmaydi, balki tinglaydi. Negaki, yaqin odamlar ko'z orqali "so'ylasha" oladilar. Shu bois oshiq, ma'shuqaning

ko'zlari "aytgan" so'zlarni "entikib" tinglaydi. Ko'zlardagi g'ussaning yo'lsiz o'rmonga, nigoh nurlanishining "qora yorq_inlik"ka o'xshatilishi she'rga adoqsiz hazinlik va tarovat bag'ishlaydi. R. Parfi she'rlarida ruhiy holat turg'un emas, balki tinimsiz harakat-u o'zgarishda tasvirlanadi. Shuning uchun ham bir lahzalik hissiyot keyingi kuchli ruhiy to'lg'anishlarga sabab bo'la oladi:

Ko'zlaring qa'rida sinis bir nola,

Balkim, kafas ichra uygongan navo?

Balkim, toshloklarda kon yutgan lola,

Yo'k, havosi so'rib olingan havo...

O'quvchini hayot hahihati emas, balki vaziyat haq.iq_ati, hissi-yot jilvalari rom etadi. Ko'zlarning qa'ridan "*siniqbir Nola* "ning taralayotgani, uning "*qafas ichra uygongan navo* " yoki Shunchaki lola emas, "*pgoshloqlarda qon yutgan pola* " bo'lishi mum-kinligi ehtimolI kishini o'ziga rom etadi. Lekin bir necha *bou*-ichli va murakkab tasvir h,ali tugamaydi. Insonning ilojsiz-ligi, .chorasizligi she'rda "*...xavosi so'rib olingan xavo...* " tarzida ifoda etiladi.

R. Parfi o'zining o'ta shaxsiy va intim tuyg'ularini ijtimoiy hayot bilan aralash, yonma-yon ifoda etadi. Chunki u jamiyatni o'zidan ayri, o'zini esa jamiyatdan tashqarida ko'rmaydi. Shu-ning uchun ham suyuqli qizning qora va ma'yus ko'zlari tasviri quyidagi tarzda ijtimoiy yukka ega nidolar bilan uyg'unlashib ketgan:

Turkiston, Turkiston, endi kulmasmi,

Malomat, tutkunlik endi o'lmasmi?

Bir sovuq mozorlarmi yo'llarinda,

Erkinlikning porloq nuri inmasmi?

Ma'shuqaning ma'yus qora nigohi qahramonni ham hayotdan bezdiradi, ham hayotga bog'lab turadi. Shoir ana shu g'alati va tushunarsiz mubx.am holatni mahorat bilan ifoda etadi:

Koshki suvga cho'ksam. Cho'kmasman. Sen bor.

Koshki o'tda kuysam. Kuymasman. Sen bor.

Sen borsan. Sen borsan. Oftobim, porla,

Ko'zlaringda yoiib bitoy, sevgilim.

Lirik sahramon uchun yorning ko'zlari shunchaki ko'zlar emas. Chunki ularda ezgulik va kdbohat, baxt va baxtsizlik aks etadi. Bu nigoxlar oshihni hamisha ta'qib etadi, o'z holiga qo'ymaydi. Shoir ma'shuqasini hayotdagi oq,liklarni ko'rishga, ulardan zavqlanib, "na'sha sochib" yashashga undaydi. She'ning so'nggi misrasida shoir xayolining chegarasiz yuksakligi namoyon bo'ladi: *"Mangulik osmoni - bu teran ko'zlar "*. Rauf Parfi she'rlari bir bora eshitish yoki o'qish bilan anglaniladigan bitiklar emas. Uning bitganlarini qayta-qdyta o'qib, ustida jiddiy o'yga to-lish, ulardagi fikr va tuyg'uning iddizi qayerdaligi xususida mushohada yuritish lozim bo'ladi. Shundagina nimadir ilg'anadi, nimadir yuqadi..

R. Parfining *"Yoshlik zangor fasl..."* deb boshlanuvchi she'ri shoir ifoda imkoniyatlarining o'zgacha tarzda namoyon bo'lganligi bilan diqqatga sazovordir. Ijodkor bu asarda telegraf usuliga o'xshash ifoda yo'lidan mohirlik bilan foydalanib, badiiy so'zning zalvorini orttiradi:

Yoshlik. Zangor fasl. Kechdi. Sargardi. To'kildi u. Shafqat bilmas bargrezon. Qora sovuklarga otib yubordi.

I nya't.:

Shamollar poyida sinmosda xazon.

Shoir she'ning birinchi, ikkinchi misralarida har bir so'z yoki birikmani bir gapga aylantiradi. "Sarg'aydi" so'zini atay "sarg'ardi" tarzida va bir gai holida qo'llaydi. Hamma katori "sarg'aydi" shaklida ishlatganida, ohang muloyimlashgan, mis-ralar zamiridan kelib chiqadigan fojia salmog'i susaygan bo'lardi. Negaki, "sarg'aygan"dan ko'ra "sarg'ar"gan yaproqning sinishi og'riqliroq kechadiganday tuyuladi. Pokiza xayollar, yuksak va beg'araz orzularga hamdam yomlikning o'tishi *"Qora sovuqlarga otib yubordi"* tarzida obrazli ifoda etilgan. Uzilgan yaproqni shamollar chirpirak qilib o'ynaganidek, xazon bo'lgan yoshlik ham hayot shamolining oyoqlari ostida sinadi. Tushuntirish mumkin bo'lmagan ruhiy holat shu tarifa juda ham moddiy hilib manzaralashtirilgan.

She'ning keyingi bandida dastlabki ruhiy iztirob tasviri yanada kuchaygan holda davom ettiriladi. "Sarg'ar"gan va "to'kilgan" fahat yoshlik og'ochining yaprog'i emas, balki ikki qalbni bog'lab turgan tuyg'ular ham edi. Shoir parchalangan,- o'ldirilgan tuyg'ularni tiriltirib bo'lmasligini **"Qancha faryod kilmay kaytarib bo'lmas"** tarzida ifoda etadi. Ammo ikki qalbgaga taskin beradigan bir narsa bor: **"Har kapay oldinda bordir so'nggi yo'l, Toki yetguningcha xopshroto'lmas "**. **So'nggi** yo'l - o'lim. Sevgining o'limi - k_albning o'limi. Inson yuragining o'limi esa, uning tirikligiga tirikligida ho'yilgan nuqtadir.

R. Parfi shu she'ning adog'ida yoshligini so'nggi yo'lga uzatayotgan kishining bir lahzalik ruhiyati manzarasini suratlantirgan:

Vido tabassumli olam, yoshligim, Ko'zlarimda qotgan jopam, yoshligim, Ko'klarga yetmagan nolam, yoshligim, Suvga cho'kib ketgan bolam, yoshligim, Vido tabassumli olam, yoshligim.

She'ning bandlari orasidagi bog'liqlik ko'zga yaqqol tashlanib turmaydi. Go'yo ular boinqa-boshqa parokanda ruhiy h_olatlar tasviriga bag'ishlanganday tuyuladi. Aslida bu she'rda chigal bir tuyg'uning uch bosqichli manzarasi aks ettirilgan. Buni she'ning "yoshlik" so'zi bilan boshlanib, shu so'z bilan tugallanganidan ham bilsa bo'ladi.

R. Parfining inson ruhiyatidagi o'ta chigal, murakkab holatlarni tasvirlagan she'rlaridan biri "Xato qildim..." deb boshlanadigan asardir. She'r kuyunchak oshiqning samimiy **iqroridan ibtido oladi: "Xato qildim, sevgilim, Xato sildim beomon..."** She'rda tuzatib bo'lmaydigan xatoga yo'l qo'ygan qahramon hissiyoti butun chigalligi va barcha tovlanishlari bilan beriladi. Muhabbat yo'lida qilingan xatoni tuza-tishning birgina yo'li bor edi, ammo oshiq buni ham qilolmayotgani g'oyat ta'sirli aks etadi:

- *Xato qildim, sevgilim, ; .:*

. *Xato qildim bilmasdan.*

: *Qani yutilsa tilim,*

Qaltirab turar qo'lim, ~ Jigarimni yulmasdan.

She'ning har bandida *"Xato sildim, sevgilim, Xato qildim bilmasdan"* so'zlarining takrorlanib kelishi qahramon iztiroblari miqyosini bildirib turadi. Qilgan xatosi yor bilan munosabatlarini chigallashtirganidan jizg'anak bo'lgan shoir xatoni tuzatish yo'lini topganday bo'ladi:

Xato qildim, sevgilim, Xato qildim bilmasdan. Men suyib xato qildim, Men kuyib xato qildim, O'lib xato qilmasman...

Ishq yo'lida hamma narsadan kechishga tayyor oshiq xrlati jamiki murakkabligi, imkonsiz imkoni bilan bir butunlikda ifoda etilgani she'ning ta'sirchanligini ta'minlagan.

R. Parfi she'rlarida ijtimoi muammolarni aks ettirishdan qochishga urinadi. Lekin u asarlarida o'z-o'zidan keskin ijtimoi xulosalarga borib qolaveradi. Chunki uning she'rlaridagi h_issiyot-u o'ylar chindir. Chin fikr, asl tuyg'u esa hamisha ijtimoi mohiyatga egadir. Buni shoirning "Og'riq" she'ri misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Tugatib bo'lmas xech bu dardni ichib, Yerilgan yaradan chechaklar o'sdi. Yuragingning yirtiq ko'ylagin yechib, Bagringga bosarsan: "Bormisan, do'stim?"

Dunyoni nuqsonsiz ko'rmoqchi bo'lgan hassos odamning talabchan nigohi "yorilgan yaradan chechaklar o's"ganligini payqaydi. Albatta, bunday holatda shoir "dardni ichib tugatib bo'lmay"digan kayfiyatga tushadi. Faqat shoirona xayolgina og'riqlardan pora bo'lgan yurakni "yirtiq ko'ylak" tarzida tasavvur etishi mumkin. Va bu tasvir o'ta mavhum tushunchani anik, berish qudratiga ega. Bu h_olat shoirda *Iz-tirob urugin jar ichingga*" tarzida taassurot qoldirishi tabiiydir. Chunki ozurdajon shoirni *"garib baxtiyorlik endi yupatar"*. Baxtiyorlikning g'aribligi sababi nimada ekan? Chunki **uning** vujudida **"Dunyoviy alamning toshlari yotar"**. Shoir yuragida dardning borligi -baxt. Lekin baxt baxtsizlikdan, ya'ni dardning borligidan emas, baxtiyorlik, quvonch tufayli kelib chiqsa, qaniydi. Odam na o'z qalbiga, na o'z yeriga xo'ja bo'lolgan vaziyatda baxtiyorlik qam insonning o'zi singari g'arib bo'lishi mumkinda. Shu bois ham shoir o'z qalbining

buyrug'iga ko'ra vatan tushunchasiga qaytib keladi. She'rda bu holat unchalik qam ko'zga tashlanavermaydigan tarzda ifoda etilgan:

Har kim o'z qalbiga o'zidir xoqon,

Baribir men seni sevib sizlarman.

Extimol noxaqman, extimol xaqman —

Muqaddas Turkiston so'zin izlarman.

"Turkiston" so'zi, vatan tushunchasi erksevar shoirni ruxiy turg'unlikdan chiqarib, unga jasorat beradi, x_ayot nafasidan baxramand etadi, imonini sobit qiladi. Chunki vatan inson x_ayotiga mazmun bag'ishlaydi:

So'z mening ko'ksimga sanchilar xayxot, Shovulla, gurkira, xayot nafasi. Ruxga imon bergil, ey qodir xayot...

: ' Yurak deb atalgan ogrubu - najot,

Ko'krak ufasimiz - najot qal'asi.

"Turkiston"ning, ya'ni vatanni anglatuvchi so'zning, so'zga aylangan vatanning shoir ko'ksiga sanchilishi tabiiy. Chunki asl vatan tashqarida yotgan tuproq emas, balki shu tuproqqa nisbatan kishining ko'ksida paydo bo'lgan munosabatdir, muhabbatdir. Vatan tushunchasi odamning tashqarisidagi tuproqdan uning ruhiyati unsuriga aylangandagina haqiqiy qimmat kasb etadi. Shundagina odam vatan nimaligini chindan tuyadi. Poklanmoqli bo'lgan, haqiqatga intilayotgan inson najotni jamiyatdan, qudrat egalaridan emas, o'zidan, yuragidan qidirishi lozimligi, xar kimning himoyalay oladigan qo'rg'o-ni o'zida ekanligi she'rda go'zal yo'sinda, mutlaqo o'ziga xos shaklda tasvirlangan.

Rauf Parfi she'rlarida o'quvchiga yo'l ko'rsatmaydi, aql o'rgatmaydi, haqiqat qayerda ekanini ta'kidlamaydi, balki o'z ruhiyatini aks ettiradi, ifodalaydi. Alohida odamdagi asl yurakda o'z dardidan tashqari, o'zgalarning g'amlari h_am bo'lgani uchun, albatta, "og'riq"li. Shu sabab qalbni himoyasiz qoldirib bo'lmaydi. Uni yeaqlab turgan qo'rg'on — ko'krak qafasi yurakni tashqaridagi xurujlardan saqlaydigan qal'a. Ayni vaqtda, yurakning o'zi kishidagi insoniylikni saqlab qoladigan mo-x_iyatdir. Kishi yuragi buyurganiday yashasa, ezgulik tantana

qshgishi tabiiy. Shoir she'rda o'zlikni asrash haqiqatga olib boradigan yo'l ekanini ishonch bilan ifoda etadi. Hazrat Jaloliddin Rumiyning: *"Ayo siz, jon chekib xar laxza izlarsiz ilohiyni, Ani izlashga xojat yo'q, ilouy — siz, iloxiy — siz"*, -degan ta'kidlarida ham inson kunglining qudrati ko'zda tutilgan. Zamonamizning otashnafas shoiri yuksak e'tiqodni, pok imonni namoyon etishda uzok, ajdodi qarashlariga tayanadi.

R. Parfi kamolotga erishmagan shaxsda ilo^hiylik sifati bo'lmasligini bilgani bois ham she'rda imonga, e'tiqodda so-bitlik maqomiga yetkazadigan darajadagi ma'naviy yuksalish shoirning qismati ekanini kuylaydi.

R. Parfi lirikasida o'zini tinimsiz izlayotgan, xatti-harakatlarini ayovsiz taftish qilayotgan shaxsning ruhiy xolatlari aks etgan "Tavba" she'ri alohida o'rin tutadi. Bu she'r }\$ur tug'ilgan va bir umr erkka talpinib yashagan shaxsning bu yo'ldagi yaxshi-yomon, qilgan-qilolmagan amallari uchun yaratganga munojotidir. She'r: *"Dodimni eishtpgsh, kodir **Allonim, Iiu sensan, oshiq xam sen, men sulingman**"*, - yo'sinidagi ochiq iltijo bilan boshlanadi. Biz so'fiy shoirlarning Allox jamoliga intilib yozgan g'azallarini o'qiganmiz. Ularda ko'pin-cha Yaratgan ma'shuqa siymosida tasvirlanar, shoir oshiq sana-lardi. R. Parfi ayrim so'fiy salafklarigagina o'xshab: *"oshiq xam sen"*, - deydi. Negaki, shoir o'zining ham Yaratganga tegishli, U tufayli ekanini biladi. Shu bois, o'zini hatto oshiqlik da'vo qilishga xam xaqsiz xisoblaydi.

She'rning qaxramoni - komillik yo'liga kirgan yo'lchi. U qay tarafga qanday yursa, Haqiqatga yetish mumkinligini bil-mok istaydi. Shuning uchun ham uning Alloxga munojotida tom bir samimiylilik seziladi:.

Imon ber ruximga, jismimga. jon ber, Loyimni qorishtir, poklab ber menga. Ojiz tomirlyga pokiza qon ber, Ravshan qil, qoramni oqlab ber menga...

Hayotning adolati shundaki, xaqiqat yo'li xech qachon yaqin h.am, oson h_am bo'lmagan. Shu bois qaxramonning munojotiga berilgan xayoliy javobda:

Ummonlar yo'lingda, janglar yo'lingda, Noma'lum xar joyda qurilgan doring. Olamning kaliti sening ko'lingda, Jafo xabibingdir, xiyonat - yoring

tarzidagi ochiq haqiqatlar qayd etiladi. Shoir o'zini dunyo-ning tuzalishi, insonlarning baxtli bo'lishi uchun mas'ul deb biladi. Shuninguchun h.am olamning sho'rishlari, h.ar qanday adolatsizlik, zo'ravonlik, noh.aqlik unga bevosita daxldor tuyuladi. Bu qabohatlardan qutulish yo'lini izlaydi:

Vahshiy dunyo, sonxo'r dunyo quturdi, Inson faryodiga to'ldi koinot. Nabiylar, dohiylar, shoirlar turdi,

Chora, chora, deya so'rdilar najot,..

Shoir o'zining buyuk xaloskorlik missiyasi borligini biladi. Chunki olamni h_aq_ so'zgina qutqarishi, go'zallaShtirishi mumkin. Shoir haqiqatga yetish uchun tariqatning "yetti vodi-y-"sini bosib o'tishgada shay. Bu yo'lda shoir o'limigada rozi. Zero, haqiqat yo'lida o'lmoq *ha.u* yetmoqdir:

Allohim, bilursan qay sori ketpdim,

Allonim, ...men o'ldim. ...Men senga yetdim...

Shoirning: "*Allonim, laxza— meuşenersamangu..*", -tar-zidagi iltijosi o'zining kimligi va Haqning neligini bilishi-ni ko'rsatib turibdi. Haq yo'lidagi o'lim lahzaning manguga ko'nshlishidir. Bu kasratning Bir bilan birikishidir.

Rauf Parfi poeziyasiga xos xususiyatlarni o'zida yorqin aks ettirgan lirik asarlardan biri "Sensiz" she'ridir. Agar she'r sinchiklab o'qilmasa, "sensiz" deyilganda nima ko'zda tutilganligini anglash h_am mushkul. She'ring birgina o'rnida:

"...Fasatsaygaketding, saylarda solding, Ox, qanday yashayman sensiz - ssvgisiz?!"- tarzida qilingan murojaat asar sarlavhasida nima ko'zda tutilganini anglash imkonini beradi. Bu she'rda ham imon, e'tikrd, h_alollik yo'liga tushgan solih. inson ruhiy holati aks etgan. Lirik qahramon atrofidan ezgulik nishonalarini izlaydi va topolmagani uchun unga olam kir, sovuq, vayrona h_olida ko'rinadi:

"Sovus. Atrof temir. Qo'limni ochdim, Yelkamda chatnadi qaynos qo'rgo-shin...

Vayrona sa'ridan ko'klarga sochdim..." Pokiza **ko'ngil** vayron dunyoga sig'maydi, unga ko'kdagina joy bo'lishi mumkin. Bunday sharoitda ishq beqadr, tushunarsiz. Bu holat **she'rda** "*Arzonga oldilar Majnupning boshin*" tarzida ifoda etilgan.

Dunyo qabohat, odamlar sevgisiz bo'lgani uchun ham atrofda ko'zni kuvontiradigan hyech nima yo'q: osmonning "rangi o'chgan" va "xunuk guldiraydi", bundan qiynalgan jon kushi "achchsh\$ chirqiraydi", shoir yonida "qonli bulos chuldiraydi", ezgulik, go'zallik timsoli bo'lmish "atirgullar beh^ush". Bu holat shoir-ni muvozanatdan chiq_aradi, umidsizlantiradi. U olam tartibotining asosi, mavjudlikning moh_iyati xaqida og'ir va xavotirli o'ylarga botadi:

...Fursat o'tmakdadir. Vuqt bu — beomon,

Omonat dunyoda omonat odam.

Vijdon shevasi bor, mehrobi — imon,

A yel odamlarni chorlaydi bu dam,

Falakka sanchilib qolgan ko'zim bor,

Olovlar, chamanlar ichra o'zim bor.

Ko'p bo'lmasa h_am bezovta "asl odamlar" bor ekan, omonat dunyoda ezgulik bo'lishidan umidlanish mumkin. Chunki olam hamisha yaxshilar yelkasidagina turadi. "Chamanlar", ya'ni ezgulik maskanlari ichra "olovlar", ya'ni yongan yuraklar borligi shoirida ishonch tug'diradi. U dunyoning h_am, o'zining h_am omonatligini biladi va imonga topinib, vijdoniga quloq tutib yashashga intiladi. Shoir ko'kka, yuksaklikka ko'z tikadi, Tangridan najot kutadi.

"Shoir" she'ri R. Parfining ijodiy yo'nalishini, san'at-korlik mohiyatini anglatadigan asarlardandir. Unda shoir ijodkorning ijtimoiy vazifasi, mas'ulligi haqidagi o'y-xayollarini aks ettiradi. Chin she'r hayajon demakdir. O'zgani hayajonga solgan, ruh_iy muvozanatdan chiqargan shoirgina haqiqiy ijodkordir. Chunki u hayajondan yaraladi va h.ayajon yaratadi. She'rdagi: **"Oxiri o'ldirar meni xayajon..." satri ayni** shu holatning ifodasi. She'rda chin shoir zamon bilan, zamonning zo'rlari bilan kelishmasligi, ularning yo'lsh-a yurmasligi kerakligi o'z ifodasini topgan. O'zini jamiyatning egasi deb hisoblaydigan, o'zgalar taqdiriga xo'jalik da'vo qiladigan **"zo'rlar" "Kibor cho'uqilarda muzlagan baxor..." tamsili orqali** beriladi. Cho'qqilar yezda xam qordan qutulmaganidek, "zo'rlar"ning viqorida, kibrida hamishalik sovuqlik, jonsiz-likbor.

Rauf parfi shariyatining Qozoqboy Yo'ldoshev¹, No'mon Rahimjonov², Fayzulla Obida³ kabi adabiyotshunos olimlar tomonidan ilmiy-nazariy o'rganilganligi biz uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

¹ Йўлдошев Қ.Ёник сўз. Тошкент. Янги аср авлоди. 2006.

² Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. Тошкент, Фан. 2007.

³ Файзулла О. Рауф Парфи шеърлятида ассоциатив тафаккур кўринишлари // ўзбек тили ва адабиёти. 2011 йил. 1-сон.

Adabiyotshunoslik ilmidan ma'lumki, makon va zamon badiiy asarda yuz berajak voqelik uchun hayotiy resurs vazifasini bajaradi. Hayotiy jihatdan yondashsak, dehqon Baraka urug'ini yerga sepib, undan mo'l-ko'l hosil ko'targuncha tinmay mehnat qiladi. Bu jarayonni sodir bo'lishi uchun, boshlanishi-yu nihoyalaniishi uchun makon va zamonning komponentlari suv va havodek zarur.

Ijodkorni dehqonga qiyoslasak, uning asarida o'z o'rnini topgan hayotiy voqelik shunday meva beradiki, bu mevadan insiniyatning oshqozoni emas, ma'naviyati, yuragi, qalbi oziqlanadi.

“Adabiy asar syujetining zanjiri halqalarini tashkil etuvchi voqea-hodisalar muayyan makon va zamonda yuz berishi tabiiydir”¹. Bu badiiy adabiyotning o'ziga xos qonuni hisoblanadi. Mana shu qonuniyatga amal qilib yozilgan badiiy sujetlar puxta bo'ladi.

Ma'lumki, makon va zamon falsafiy tushuncha bo'lib, olam hodisalarining yuz berishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. “Makon va zamon (fazo va vaqt) – borliqning umumiy yashash shakllari; fazo (makon) dunyoni tashkil etuvchi obyektlar va ulardagi tarkibiy nuqtalarning o'zaro joylashish tartibi, ko'lami va miqyosini ifoda etsa, vaqt (zamon) dunyoda sodir bo'luvchi hodisa va jarayonlarning ketma-ket ro'y berish va davomiyligini ifodalaydi.”²

Nafaqat ketma-ket ro'y beruvchi davomiy hodisalar, balki bir onlik mikro voqelik ham ma'lum vaqtda sodir bo'ladi. Masalan, chaqmoq chaqish, xazon yaprog'ining uzilishi, suvning po'rtalanishi kabilar “ozgina tegib ketsang, ko'proq sachraydigan” ijodkorni ilhomlantirib, to'lqinlantirib yuborishi mumkin. Bu esa badiiy adabiyot faqat hayotni tasvirlabgina qolmay undan resurs sifatida foydalanishni ham ko'rsatadi. So'z san'atkori bu mitti voqelikni nekbin tuyg'ular

¹ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Т.: Ўзбекистон. 2002. 133 бет.

² Фалсафа. Энциклопедик луғат. -Т.: Шарқ. 2010. 271 бет.

bilan shu darajada to'yintiradiki, natijada quyidagicha badiiy mo'jizakorlik vujudga keladi:

Umring juda qisqa bo'lsa ham,
Dunyoga shaffoflik bo'lib to'lasan.
Sen jamiyki ko'zlarga malham,
Iliq tabassum bilan o'lasan¹.

She'ning mazmuniy salmog'idan anglashiladiki, shoir musaffolik, poklik ramzi sifatida qalamga olinuvchi "shabnam"ning tong saharda yorug' dunyoni ko'rib, qisqa muddatda yana yo'qlikka aylanishini tasvir etgan. She'r ramziylik asosida qurilgan bo'lib, "shaffoflik bo'lib to'lish", "iliq tabassum bilan o'lish" assotsiativ birliklarni o'z ichiga olgan. Sha'rdagi quymo obrazi chizilgan "shabnam" oddiy shabnam emas, u juda kam umr ko'rsa-da, uzoq asrlarga xotirot sifatida mehrlanuvchi pokdomon inson ramzi.

Mazkur she'rda badiiy xronotopni o'zida mujassam etuvchi birorta element tilga olinmagan bo'lsa ham, u badiiylik qonuniyatidan kelib chiqib anglashiladi. She'r uchun makon vazifasini borliq bajarsa, zamon vazifasini erta tong mahali o'zida to'la-to'kis ifoda etadi.

Adabiyotdagi badiiy o'zlashtirilgan makon va zamon munosabatlarini o'zaro aloqasi xronotop deb ataladi. Xronotop yunoncha so'z bo'lib, "chronos– vaqt, topos – joy" degan ma'noni anglatadi. Ushbu atamani adabiyotshunoslikka birinchi bo'ib, rus olimi M.M.Baxtin olib kirgan². Adabiyotshunoslik ilmida xususan o'zbek adabiyotshunosligida bu tushuncha ko'proq makon va zamon deb yuritiladi. Uning o'rganilishi o'ziga xos makon zamon kategoriyasining xususiyatlaridan kelib chiqilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Negaki, asar qahramonining ruhiyati, turli ko'rinishdagi sezimlari makon va zamon elementlari bilan bevosita bog'liqdir.

¹ Парфи Р. Хотирот. Т.: Ғафур ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1975. 49-бет.

² Тўйчиев А. Ҳикояларда макон ва замон тасвири // Тил ва адабиёт таълими. 2009 йил. 11-сон. 32 бет.

Bulbullar xushnavo qilgan, gullar xandon otgan zamon va makonda ijodkor tushkunlik kayfiyatidagi obrazni tasvirlamaydi. Qahramon, zamon va makon o'zaro mantiqiy bog'liqlikda kelishi kerak. Masalan, Butun turk dunyosi shamsul millat, ya'ni millatlar quyoshi deb izohlangan Alisher Navoiyning "Sabbai sayyor" dostonidan o'rin olgan "Mehr va Suxayl" hikoyatida hijron azobida o'rtangan Mehr obrazining ruhiy holatidan kelib chiqib, uning nilufargul libosida sevgisiga motam tutganini va bog'da faqat nilufargullar borligini shunday tasvirlaydiki, bosh qahramonning hijron azobidan nechog'lik qiynalayotganini makon orqali ham anglab olish qiyin emas.

Badiiy asarda makon va zamon unsurlari sujet, kompozitsiya birlashib, tutashib, aniq bir poetik davrning ruhiy manzarasini yuzaga keltirishga, shu bilan birga, adabiy asar qahramonining qalb dialektikasi, mohiyati, ruhiy ma'naviy dunyosini tasvirlash vazifasini bajarishga qaratiladi. Masalan, A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani tariximizning muayyan bir manzili va davrida yuz bergan: Otabek, Kumushbibilar faoliyatlaridan o'zib chiqqan voqea-hodisalar konkret makon (Marg'ilon, Toshkent, Qo'qon va ular atrofidagi qishloqlar)da va aniq bir davr XIX asr o'rtalarida yuz bergan; Otabek va Kumushbibilar XIX asr o'rtalaridagi o'zbeklarning tipik vakillari. Bu omil zamon sujetning qiziqarli, hayotiy, haqqoniy bo'lib chiqishiga imkon yaratadi¹. Roman uchun muallif "XIX asrning eng qora va kir kunlari"ni badiiy xronotop sifatida tanlagani uchun voqealar rivojining kechimi ijobiy xarakter kasb etadi. Shuning uchun ham zamon nihoyasida qahramonlarning tragik holati yuz beradi. Badiiy xronotopning drammatik tur va miqiyosida o'rganilishini f.f.d.prof.Ilhom G'aniyevning "Fitrat dramalari poetikasi"² monografiyasida, "Shaytonning tangriga isyoni", "Abulfayzxon", "Arslon", "Hind ixtilochilari" drammalari, "Chin sevish" pessasi va "Ro'zalar" komedyasi misolida ko'rishimiz mumkin.

¹ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Т.: Ўзбекистон. 2002. 133 бет.

² Ганиев И. Фитрат драмалари поэтики. Тошкент. Фан. 2005 й. 281 бет.

Adabiyotshunos olimning ta'kidlashicha, dramaturgiyada makon va zamonning harakat birligi taminlanishi, qahramonlar, voqealar, kolliziyalar ostonasidagi bog'lanishlarda tabiiylik meyyori saqlanishi shart.

Makon va zamon bog'liqligini biz real zamonda ham har doim sezib turamiz. Masalan, biror hodisaning qayerda sodir bo'lganligi bilan bir qatorda qachon ro'y berganligi ham muhimdir. Aniqrog'i, makon va zamon bir-birini to'ldiradi, ular doimo o'zaro bog'liqlikda. Shuning uchun ham mashhur nazariyotchi olim M.Baxtin ushbi yaxlitlikni xronotop deb yaxlitlkda o'rganadi.

Estetikada makon va zamon kategoriyalari o'zaro bog'liq va shu bilan birga o'ziga xos alohida xususiyatga ega. Hatto estetikaning avvalgi davrlarida makon va zamon san'atlarning turlarga bo'linishdagi asosiy mezon vazifasini bajargan. Lessing birinchi bo'lib makon va zamonni san'atlar bo'linishining asosi deb e'lon qilgan. Shunga ko'ra san'at turlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Statik makonda voqelanuvchi san'at turlari:
 - a) Memorchilik;
 - b) Rassomchilik;
 - c) Haykaltaroshlik;
 - d) Grafika.
2. Dinamik zamonda voqelanuvchi san'at turlari:
 - a) Musiqa;
 - b) Badiiy adabiyot;
3. Sintetik xronotopda voqelanuvchi san'at turlari;
 - a) Kino;
 - b) Teatr.

Tarixan tarkib topgan mazkur tasvirlanish hozirgi kunda ham o'zini ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan.

Badiiy xronotopdagi fikriy va konkret butunlikda makoniy va zamoniy birliklarning qo'shilishi o'z o'rniga ega. Zamon bu yerda o'zgaruvchan, badiiy ko'rinuvchan bo'la beradi. Makon esa jadallashadi. Zamon, voqea, sujet hatkatda

cho'ziladi. Zamon xususiyatlari makonda namoyon bo'ladi va makon zamonda o'lchanadi, idrok etiladi¹.

Badiiy ijodda makon va zamonning o'lchamlari shartli tarzda o'zgarib turadi 'zamon siqilishi, uzayishi va to'xtashi va orqaga ketishi mumkin'². Shu kabi makoniy munosabatlarnig qorishib ketishi, turli usullar vositasida badiiy shakl va badiiy mazmun o'rtasida shartlilik ataluvchi oraliq hosil bo'ladi.

Badiiy makon va zamon bu adabiy obrazning shaxsiy hayoti, o'lchami hamdir. Makon va zamon muammosini mushtaraklikda o'rganishning yana bir afzal tomoni shundaki, muallif vaqti (zamoni) bilan tarixiy vaqtni u yaratgan asarning real zamoni bilan uzviy bog'lab turadi. Masalan, Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik" Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarlarini olsak, bu asarlarda tasvirlangan o'tmish zamon bag'rida hozirgi kelasi zamon yashiringan.

Yana badiiy makon va zamon shartlarining o'ziga xosligi shundaki, ijodkor bir shaxs, bir kunlik yoki bir soatlik qismatning botinida yana tafakkurida bir necha makon, zamonlarni sig'dirishi mumkin. Masalan, S.Ayniyning "Qullar" romani yuz yillik davrni qamrab olsa, Ch. Aytmatov "Asrga tatiguli kun" asarining qahramoni yigirma to'rt soat davomida butun bir tarixni boshdan kechiradi. Yoki "Alvido Gulsari" asaridagi Taniboy o'layotgan yo'rg'a otni tepasida bir necha soat turib, xayol surib fikran butun bir davrni xotiradan o'tkazadi.

Makon va zamon masalalarining murakkabligi ayni zamonda o'ta falsafiy, qiziqarliligi bilan bo'lsa kerak, jahon adabiyotshunoslik ilmida nazriy jihatdan atroflicha o'rganilgan va izchil tadqiq etilayotgan makon va zamon masalalarining nazariy asosi falsafaning, demakki, voqelikning u yoki bu tomonini dialektik jarayon sifatida o'rganish darajasiga ko'tarilgan ondan boshlab har qanday fan tarmog'ining muhim tarmoqlaridan biridir. Zero, har qanday predmet yoki hodisa makonda muayyan o'rin tutadi. Lekin u shu makonda tinchgina muayyan joy egallab turmaydi, balki harakatlanadi, o'zgaradi, rivojlanadi. Bu harakat esa

¹ Бахтин М.М. Вопросы литературк и эстетики.— М: Художественная литература. 1975. С. 234-235

² Ғаниев И. Фитрат драмалари поетикаси. — Т.: Фан. 2005. 85 бет.

faqatgina muayyan makonda emas, balki muayyan zamon ichida ham ro'y beradi. Falsafaning "ikkikara ikki to'rt" deganday oddiy, lekin teran qoidasi shuki, makon, zamon, va harakat, materiya va ongning yashash formalari yoki yashash shaklaridir. Hech qanday hodisa, hech qanday obyekt, hech qanday voqea jarayon makon va zamondan tashqarida yashay olmaydi.

Makon va zamon muammosi san'atda va uning imkoniyatlarining keng turi bo'lmish adabiyotda (shu bilan birga estetika va adabiyotshunoslikda) alohida ahamiyat kasb etadi. Odatda istalgan san'at turining har qanday asarida makon va zamonning u yoki bu darajada rivojlangan obrazi timsoli mavjud bo'ladi. Zero, san'atning maqsadi olamni uning yaxlitligida, ya'ni makon va zamon koordinatorlarining birligida modellashtirishdan iborat.

Estetika va adabiyotshunoslikda zamon va makon (yoki badiiy makon va badiiy zamon) muammosiga murojaat XX asrning birinchi yarmida bu fanlarning eng ilg'or namoyondalari tomonidan boshlab berildi. Hozirgi kunda bu mavzudagi asarlarning salmog'i ancha ko'pchilikni tashkil qiladi. Makon va zamon kategoriyalarining san'at turlari miqiyosida chuqurlashtirilib o'rganilishidan shu narsa ma'lum bo'ladiki, miqdor o'zgarishlari vaqt o'tib sifat o'zgarishlariga olib kelishi mumkin. Aslida bu bilish taraqqiyotidagi qonuniy va yuksalishning nishonasi hisoblanadi. Rus akademigi D.Lixachev yozgandek: "zamon kategoriyasi olamni tushunishning va bu olamni san'atda aks ettirishning hozirgi bosqichida tobora ko'proq ahamiyat kasb etib bormoqda"¹.

Bu muammoning alohida masalalari, qirralari son-sanoqsiz, albatta. Har bir yangi tadqiqotchi muammoning yangi-yangi qirralarini kashf etishi tayin. Badiiy makon va badiiy zamon muammosining alohida yozuvchi ijodi misolida o'rganishning birinchi masalasi "O'sha ijodkorning har bir asarida tasvirlangan voqealar qaysi makonda va qaysi zamonda ro'y beradi?" degan savolga javobtopishdan iborat. Yozuvchi badiiy olamning zamonaviy va makoniy chegaralarini anglash uchun uning alohida asarlarida aks ettirilgan makoniy,

¹ Лихачев Д.С. Поэтика деревенная тюркиский литературк. – М.: Наука. 1979. С. 113-114

zamoniyl chegaralarni bir joyga jamlash va umumlashtirish ularning bir-biri bilan bog'liql tomonlarini o'rganish va ularning yaxlit bir olam sifatida tasavvur eish kerak. Chunki, ularning o'zi aslida ijodkor yaratgan butun bir badiiy olamning turli jihatlaridir.

Adabiyotshunos olim I.G'aniyev Fitrat dramalarini makon va zamon xususiyatlari haqida shunday deydi: "Fitrat dramaturgiyasida aks etgan badiiy olamning ibtidosi bir oz sezgilarimiz bilan bevosita idrok eta olmaydigan makonlarga (yetti qavat osmon ustidagi kengliklarga) va olam yaratilgan-u, hali odam alayhissalomning jismlariga jon ato etilmagan zamonlarga borib taqaladi. Makon va zamon ibtidosining shu vaqtlarni o'z ichiga olgan qismi dramaturgning " Shaytonning tangriga isyoni" deb nomlangan bir pardali pesasida o'z aksini topgan"¹.

Badiiy xronotopning mazkur xususiyatini lirik tur miqiyosida, aynan R.Parfi she'rlari misolida olib ko'rsak, shoir she'riyatida ham murakkab taxayyul mahsuli bo'lgan "jimiston", "uyquning sahrosi", "g'ariblar dunyosi" kabi makoniyl ifodaviyliklar borki, ular badiiy xronotopning xayoliyl modeliga yorqin misol bo'la oladi. R.Parfi she'rlarining makoniyl va zamoniyl chegaralari ona Turkiston hamda unga aloqador bo'lgan moddiy olamlarga borib taqaladi:

Uyg'onar Turkiston, uyg'onar dunyo,
Porloq umidlarga to'lib kun boqar.
Baxt singari olis yulduzlar go'yo,
Azal go'zallikning shamini yoqar.
Ko'nglim osmon yanglig' yorishdi, yorishdi osmon,
Yorqin saharlarda sen, Ruhim osmon,
Yuksak-yuksaklarga qilaber parvoz.
Ey Samo, ey Zamin, ey Inson – qodir,
Gullar chechaklarga to'lsin oydin yo'l.
Nafosatga axir chidamli odam.

¹ Fаниев И. Фитрат драмалари поэтикаси. – Т.: Фан. 2005. 88-бет.

Bu kun sen boshqasan, Dunyo boshqadir.
Senda Hur tug'ilding. Bir so'zla. Bir o'l,
Va bilgil qaylarda sarsondir Alam...¹

“Turkistonning uyg'onishi”, “dunyoning uyg'onishi”, yulduzlarning, go'zallik shamlarining yoqilishi”, lirik qahramon ko'nglining osmon kabi yorishishi” kabi assotsiativ tasvir asosida qurilgan mazkur sonetda makon – ona Turkiston, zamon esa kelajak, ya'ni “yurgin sahar” hisoblanadi.

She'ning tasvir markazida ona vatan va uning amalga oshishi muqarrar bo'lgan nurli istiqboli, nozik sezimlar ila tasvir etilgan.

Shoir mazkur sonetning nihoyalanishida “Samo”, “Zamin”, “Inson” kabi lirik obrazlarga: “gullar, chechaklarga taskin oydin yo'l, Nafosatga axir chidamli odam”, – deya murojaat qiladiki, bunda badiiy adabiyotning eng oily vazifalaridan biri bo'lgan “ezgulikni tarannum etish” o'z aksini topgan. Shoir dunyoning ezgulikka burkanishini faqat o'zi va atrofdagilardan so'ramaydi, “Samo” deya barcha yaratguvchilarning sohibi bo'lgan Alloh taolloga, “Zamin” deya ona sayyoraga, “Inson” deya maxluqotlarning gultojiga murojaat qiladi va shodligi kam-u, g'ami ko'p bo'lgan bu dunyoda bani basharga nafosat, oydin yo'l tilaydi, qalblarning ezgulik chashmasini suvidan bahramand bo'lishni xoxlaydi.

Sonetning nihoyasida lirik zamon vazifasini shoir yashagan davr bajargan. Zamonni makonsiz tasavvur qila olmaganimizdek, makon sifatida ona vatan gavdalanadi.

Tamaddun qaysi ko'rinishda bo'lishidan qat'iy nazar, zamin-u zamonni o'zgartirishi, rivoj topishi bilan birga, uni anglovchi, sezuvchi, his qiluvchi insonni ham kamol topishi muqarrarligini ta'kidlaydi va Xuddi XX asrning birinchi choragida yashab ijod etgan jaded ijodkorlarimizdek, asr niyohasida “Sen –da hur tug'ilding. Bir so'zla. Bir o'l va bilgil qaylarda sarsondir Alam...” – deya

¹ Парфи. Р. Сўнги видо. – Т.: Алишер навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутбхонаси нашриёти. 2006. 14-бет.

hayqiradi. Bu misralarida R.Parfi cho'lponning "kishan kiyma, bo'yin egmaki, sen ham hur tug'ilgansan" misralaridan badiiy estetik bahra olganligini yashirib o'tirmaydi.

Mazkur sonetning yaratilish davri XX asrning oltmishinchi yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda "xalq dushmani" deya e'tirof etilgan ijodkorlarning asarlaridan ijodiy bahra olish, ularning uslubiga ergashib she'r bitish o'ziga xos jasorat hisoblanadi. She'ring "Kelin ot o'ynatib Xaloskor sarboz" misrasida iste'dodli, mard, jasur xalq hech qachon belga qolmasligi o'ziga xos shoirona mahorat bilan tasvir etilgan. "Dusi kammakon – kol, zamona esa esib turuvchi el, ldindagi to'lqin inlaring bo'lsa, orqadagi to'lqin – og'alaridir, navbat bilan olishar, avvalgiday bo'lishar" – degan edi qoqzoq xalqining xassos shoiri Abay "Naqmiya so'zlar" asarini o'ttiz yettinchi so'zida

Darhaqiqat, inson umri azim ko'l kabi mavjlanib turuvchi dunyoda tinim bilmas el singari o'tib boraveradi. Bu ko'lda mavj urayotgan to'lqinlar hammaga har xilcha ta'sir ko'rsatadi: Kimnidir umr bahorin kuzga aylantilaradi. Kimnidir eng yaqinlaridan ayiradi, kimgadir unutib bo'lmas zavq naxsh etadi. Umr daryosini bunday to'lqinlarini hech kim hech qachon hech narsa bilan jilovlay olmagan. Faqat uni ongli tarzda idrok etish mumkin.

Rauf Parfining "Sohil sari borardi bir chol" misrasi bilan boshlanuvchi she'rini lirik qahramoni oqishdan to'xtamaydigan azim daryoda bir somon cho'piday oqim izmidagi butun bani basharni umumlashma obrazi hisoblanadi.

Sohil sari borardi bir chol,
Qo'lda hassa, shoshib borar ul.
Har kun takror bo'lar ushbu hol,
G'udranadi asabiy nuqul.

Qandayi sir border bu yoqda,
Azim daryo sen, o'zing aytgil.
–Huv, yoshlik qlogan qirg'oqda,

Yoshligini izlab kelar ul.

Murakkab tahayg'al asosiga qurilgan mazkur misrada inson umri "qarilik va yoshlk" kabi ikki qutbdan iborat ekanligi mohirona aks ettirilgan. Shoir "Yog'ar oppoq pag'a-pag'a qor" she'rida: "Huv yiroqda gulagan bahor"ga tashbeh qilgandi. Mazkur she'rda esa "daryoning qirg'og'i xuddi shunday vazifani bajargan. She'rdagi "chol" obrazini shoirning o'zi yok iuning hayotiga dahldor biror kishi deb bo'lmaydi. Chunki bu obraz umr daryosining oqimiga hech qanday qarshilik o'rsata olmaydi. Uning izn-ixtiyoriga to'la bo'ysinuvchi butun ijodining umumlashma obrazidir. She'r uchun badiiy makon vazifasini ona tabiat, borliq, dunyo o'tagan bo'lsa, badiiy zamon vazifasi esa inson umrining qishi ya'ni qarilik chog'I kelgan.

Qo'lda hassasi bilan shoshib, asabiy, g'udrangan holda daryo sohili tomon borayotgan chol obrazida "Yoshlik – zangor fasl"ni qumsash, bemavrid hayot shamoli keltirgan "qor'larni boshqa qo'nishi kabi holatlar tasvirlanganki, bunda har bir inson o'tayotgan umrini har bir soniyasini qadrlash ma'lumligini ko'rsatadi, his qiladi, uni burun vujudi bilan qadrlashga urinadi. She'rda tilga olingan daryo oddiy daryo emas, u umr daryosi, uning sohillarida go'zallik ilk bor o'zlikni anglash, ilk bor qo'lga qalam olishni o'rgangan chog'lar, birinchi muhabbat, hayot tashvishlarini tirikchiliklarini idrok etish kabi umrning unutib bo'lmas parchalari-bo'laklari birin-ketin qolib ketaveradi. Ularni qumsash, sog'inish mumkin, ammo unga qaytib bo'lmaydi, chunki umr daryosi hech qachon orqaga qaytmaydi. Shuning uchun ham she'r qahramoni "g'udrandi", "asabiy", kabi so'zlarni ishlatadi.

Rauf Parfi she'rlarida inson umri fasllar, yoki daryo kabi obrazlarda ifoda etiladi. Inson umrining daryoga qiyoslanishi o'zbek she'riyatida ko'p uchraydi. Jumladan, O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim bir she'rida:

Sohildan uzildi vaqt bilan o'ynab,

O'yladim: dorida dahrning dushi.

O, balki vaqt yurmas daryolar bo'ylab,

Erdan falak sari oqadir balki, – deya vaqtni aniqrog'I umrni yerdan falak sari oqadigan daryoga o'xshatadi. Odatda, daryo yuqoridan quyiga tomon oqadi, vaqt daryosi esa buni aksi. Oqqan joyida tiriklik ne'matlarini undirgan daryo bilan barcha tirik mavjudodlarni hayotini sabr bilan oqizib borib, ruhiyatini falak sari oqizib ketuvchi daryonning farqi juda katta. U umr daryosidir. Rauf Parfining Sohil sari borardi bir chol” she'rida aks ettirilgan daryo ham falak sari oquvchi daryo hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, she'ning mazmun salmog'ini, badiiy jozibadorligini anglashda poetic xronotopning uni o'zida mujassam etgan badiiy detallarni o'rni beqiyos.

Rauf Parfining “Oydinlik”, “Muncha g'amgin bo'lmasa uylar”, “Mudrar yarim kecha uyquda”, “Yog'ar oppoq pag'a-pag'a qor”, “yoshlik”, “termulaman olis ufqqa”, Butun kecha o'chgan va sokin”, Shivirlaydi yomg'irga yashab o'tgan xazonlar”, “yoshlik zangor fasl, kechdi sarg'ardi” kabi she'rlarida inson umri haqidagi noyob badiiy topilma hisoblanuvchi tasvirlar borki, ularning barchasi murakkab taxayyul asosiga qurilgan va ularning barchasi uchun inson umri, hayoti badiiy zamon bo'lsa, ona sayyora makon vazifasini bajaradi:

Shamol sochlarimni tarama,

Oqarsa oqarsin ozobdan.

Qismat, hayron bo'lib qarama,

Axir ayirmading qahr-g'azabdan¹. – deya shoir o'z umrining ma'lum bir davrini ham badiiy xronotopning ifodaviyligini konkretlashtiruvchi omil sifatida qo'llaydi va bu bilan o'z dardi faqatgina o'ziniki, emasligini, shoir zoti hech qachon o'zi uchun yashamasligini uqtirish orqali shoirona tasvir aks eta olgan.

Hayot haqiqati badiiy haqiqatga istedod egasi tomonidan aylantirilar ekan, undagi hodisalar (yashahs, sevish, mehnat qilish, kurashish kabilar) ma'lum bir makon va zamonda ro'y beradi. Bu esa o'z navbatida har qanday insoniy xohish-

¹ Парфи. Р. Тавба. Тошкент. Ёзувчи нашриёти. 2000 йил. 33-бет.

istak amalga oshirilish uchun vaqt sarflanishi, jarayonning sodir bo'lishini taqozo etadi. Mazkur voqelikning rivojlanib borishi makonni talab qiladi, negaki, makon va zamon tushunchalari rus olimi M.Baxtin ta'kidlaganidek, doimo bir-biri bilan uzviy bog'liq. Vaqt alomatlari makonda namoyon bo'lgani kabi, makon zamon orqali tushuniladi, inkishof etiladi¹.

Deylik, muhabbat atalmish ulug'vor tuyg'uning asiri bo'lgan yosh yigit suyukli yorining hayotini saqlab qolish uchun boqiylik gulini inson qadami yetmagan xatarli tog'dan olib kelish kerak. Bunda so'z san'atkori yigit obrazi orqali "sevgiga sodiqlik", "mardlik", "qahramonlik" kabi fazilatlarni kitobxonga ma'naviy o'rnak qilib ko'rsatadi. Ushbu voqea qaysi janrda bayon qilinishidan qat'iy nazar, yuqoridagi fazilatlarni ijodkor o'z obraziga asar muqaddimasidayoq yuqtira olmaydi, chunki sodiq oshiq boqiylik guliga yetguncha, uni olib kelib suyuklisining hayotini xavfdan batamom xoli qilguncha, qanchadan-qancha mashaqqatlarni boshidan kechirishi zarur. Shundagina oshiq yigit obrazida yuqoridagi fazilatlar bo'y ko'rsatadi. Bir tomonlama yondashilganda bu jarayon uchun makon va zamonning hech qanday aloqasi yo'qday tuyuladi. Ammo badiiylikning birinchi qonuni bo'lgan "hayotni buzmay, haqqoniy tasvirlash"ga bo'y sinilganda esa xronotop, ya'ni makon va zamonning aniq ifodalanishi talab etiladi. Shuning uchun fantastik asarlarda ham xronotopning hayoliy modeli mavjud bo'ladi.

Makon va zamon tushunchalarini adabiy turlar miqiyosida o'rganilishiga e'tibor qaratilsa, faqat epik va dramatik turdagi asarlarning nazariy taftish qilinganligi namoyon bo'ladi. Boshqa adabiy turlar, jumladan , lirik turda mazkur tushuncha o'zining ilmiy yechimini hanuz topmagan. Lirik turda voqelik keng ko'lamda tasvirlanmaydi. Lekin voqelikdan hosil bo'lgan his-tuyg'ular jozibali tasvir etiladi. Lirikada, adabiyotshunos olim U.To'yshiyev ta'kidlaganidek, fakt emas, u haqdagi fikr muhimdir. Shu bois lirik asarda kishidagi xazinlik, sog'inch

¹ Бактин М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература. 1975. С. 219-220

yoki baxtiyorlik kabi oniy kechinmalar o`z aksini topadi. Voqeband she`rlar bundan mustasno. Ular epik va lirik turning bir-biriga uyg`unlashuvidan vujudga keladi. Bunday sherlarda har ikkala turning xususiyatlari mushtarak bo`ladi. Masalan, E.Vohidovning “Yangi davr shum bolasi” she`rida siqiq voqelik ham bor, ekspressiv tasvitiylik ham bor.

Lirik turda makon va zamon tushunchalari boshqa turlardagidek, o`zida xos poetik yukni tashiydi, asarning hayotiyiligini ta`minlashda bosh mezon sanaladi.

Shaklan singan satrlar, keskin kechinmali holatlar, ma`nosi murakkab, ziddiyatli kayfiyat va tuyg`ular manzarasini chizishga yo`naltirilgan she`riyat egasi R.Parfi o`z asarlarida vaqtga falsafiy mohiyatni yuklaydi:

Men uzoq uxladim.

Bir asr uxladim, nega meni –

Nega siz yashinni uyg`otmadingiz?! – kabi so`roq shaklidagi uchligida shoir o`zini yashinga qiyoslaydi, o`zligini anglashga, zamonasini anglashga ertaroq ko`maklashmaganlardan noliydi. Anglashiladiki, zaminu-zamonlarni o`zgartirish qudratiga ega bo`lgan vaqt (zamon) lirik qahramon kechinmalarini ifoda etishda asosiy vosita vazifasini bajargan. Lirik zamonning voqe bo`lishiga zamin hozirlagan. Lirik makon ham aniq. U – shoir yashagan zamin, ya`ni uning vatani.

Badiiy asarda xronotop o`z tasvir mohiyatiga ega bo`lish uchun sujet rivoji bo`lishi shart. Zero, sujetsiz asar bo`lmaydi. Shunday ekan, lirikada ham ma`lum sujet parchalari mavjud bo`ladi. Ularni bir-biriga kontrast qo`yish, qiyoslash, dalillash orqali qalb qo`ridagi tuyg`ular harakatga keladi. Millionlab qalblar larzaga kelsa, hayajonlansa, iztiroblansa, quvnasa o`shandagina she`r haqiqiy poeziyaga aylanadi. O`zbek she`riyatida o`ziga xos burulish yasagan R.Parfi she`riyatida buning yaqqol ifodasini ko`rish mumkin:

Yog`ar oppoq pag`a-pag`a qor,

Dardim qorlar kabi sochilar.
Huv yiroqda gullagan bahor,
Bo`ylari ko`ksimga sanchilar.

She`rda ba`ni basharning umri o`z so`ngiga, ya`ni qishiga boravergach, yoshligi “uzoqda gullagan bahordek” xotiraga olinishi lirik maqomda tasvir etilgan. Shoir o`tmishni xotirada jonli gavdalandirish uchun “pag`a-pag`a qor yog`ish”, “Darnini qordek sochilishi” , “Bahorning yiroqlarga gullashi”, “bo`ylari ko`ksiga sanchilishi” kabi kichik-kichik voqelarni bir-biriga birlashtiradi. Qor, bahor obrazlariga olam-olam ma`no yuklaydi. Ularni mazmunan bir ipga tergandek, ekspressiv kayfiyat hosil iladi.

Baddiy matndagi vaqt (zamon) faqat yillar bilangina kifoyalanmaydi. Fasl, oy, hafta, kun-tun hatto daqiqa va soniyalar ham matnda o`z badiiy vazifasiga ega<sup>1</sup>. Ular asar mantiqiyligini taminlab, qaysi adabiy turda aks ettirilishidan qat`iy nazar ma`lum makon (yoki mikro makon) da sujetni shakllantirib boradi. Yuqoridagi she`rda qor yog`ishi (qish) va bahorning kontrast usulda tasvirlanishidan lirik zamon ifoda etilgan. Mazkur asarda zamon bahor yoki qish emas, balki lirik qahramonning umridir. Ular majoziy ma`no tashib, obrazli fikrlashni keltirib chiqargan. She`rning semantik markazida lirik qahramonning umr sarhisobi yotibdi. “qish” va “bahor” fasllarga oid bo`lgan sujet halqachalari mazkur ziddiyatli kayfiyatni namoyon qilishga yordam beradi. Asrda zamonga oid elementlar tilga olingan, lekin makon tushunchasini ifodalovchi unsurlar qalamga olinmagan bo`lsa ham, u lirik qahramonning holati va kayfiyatidan kelib chiqib, ona sayyora ekanligi anglashiladi, his qilinadi. Negaki, har qanday zamon ma`lum makonda sodir bo`ladi.

Lirik turdagi makon va zamon kategoriyasi boshqa turlarga nisbatan farqliroq she`rda voqea emas, balki lirik qahramonning oniy kayfiyati tasvir etilar ekan, birlamchi va ikkilamchi makonni mavjudligi oydinlashadi. Bu lirik turga

¹ Тўйчиев А. Хикояда макон ва замон тасвири. Тил ва адабиёт таълими. 2009 йил 11 сон 33 бет.

mansub boʻlgan qonuniyatdir. Negaki, iztirob, tuygʻu, kechinma qalbda sodir boʻladi. Qalb egasining olamda mavjudligi esa, borliq (yoki lirik qahramon vatani)ni asosiy lirik makon darajasiga koʻratadi. Lirik zamon ham juda katta ijtimopiy davrni qamrab olishi mumkin. Masalan, germaniyalik buyuk shoira Gabriele Kellerning “Ibtido va intiho” sheʼri misolida buni koʻrish mumkin:

Quyoshu oy, yulduzli osmon,
Milliyard yillab chayqalgan ummon.
Goʻdak qalbi shabnamdek toza,
Hayot nomli sirli darvoza.
Kulib kutib, yigʻlab kuzatib,
Goh gul tutib, goh toshlar otib,
Shunday yashar... ibtidodan intihoga qadar¹.

Shoira sheʼrxonning koʻz oʻngida borliq haqidagi tasavvurni jonli gavdalantirish maqsadida quyosh, oy, yulduzli osmon, chayqalib turgan ummon obrazlaridan foydalangan va insonning shabnamdek toza qalb bilan dunyoga kelishi, kulib qarshi olinishi, umri davomida unga goh gullar tutilishi, gohida esa toshlar otilishi muqarrarligini va nihoyat yigʻlab kuzatib qoʻyilishi mohirona lirik chizgilarda ifodalaydi. Bu sheʼrning lirik qahramoni umumlashma darajadagi shaxs, yaʼni butun baʼni bashar hisoblanadi. Shuning uchun ham bu sheʼrning ibtidodan intihoga qadar boʻlgan lirik zamonni juda katta davrni oʻz ichiga qamrab oladi. Sheʼrda faqat germaniyalik shaxs emas, butun bashariyatning umri aks ettirilishi badiiy adabiyotning ommaviylik xususiyatini namoyon qilish bilan birga lirik zamonning cheksizligini ham koʻrsatadi. Lirik makon ham birorta mamlakat yoki shahar emas, balki butun dunyo hisoblanadi. Chunki sheʼrda umumbashariylik mavjud.

¹ Келлер Г.Ибтидо ва интихо. Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2004 йил 2 апрел

“Vaqtdan foydalanish masalasi adabiy turlar bir-biridan farq qiladi. Lirik va dramatic turga xos asarlarda vaqt birligi bir muncha chklangan holda olinadi. Masalan, lirik she’rda inson qalbidagi oniy lahzalarda paydo bo’lgan his-tuy’ular qalamga olinsa, ahna asarlarida 24 soatlikni, bir necha kunlikni – bo’lib o’tgan voqealar ikki soatga sig’diriladi. Eposda esa vaqt cheklanmaydi. Ayniqsa epik turning yirik janri romanda bir vaqtning o’zida o’tmish bilan bugun, azal bilan abad, fano bilan baqo, kechagi kun bilan uzoq kelajak uchrashishi, aks etishi mumkin. Muhimi, zamon va makon omillari asar loyihasidagi o’rnini yo’otmasa bas”¹.

Epik tur miqiyosida makon va zamonning poetic xususiyatlarini nazariy asoslagan Gulchehra Mamarasulova lirik va dramatic turdagi xronologik tasvirni siiq ekanligini ta’kidlaydi. Ammo dramatic turning sahnalashtirilishi, lirik turning tuyg’ularning harakatga keltirisjidagi payt va holatini badiiy xronotopni belgilashga asos qilib oladi. Aslida, qaysi turdaligidan qat’iy nazar badiiy asarda tasvirlangan voqelik (uning namoyishi, o’qilishi va his qilinishi emas) makon va zamon uchun asos bo’lib xizmat qiladi. G. Killerning “Ibtido va iniho”, R.Pafining “O’rtada talashur kechmish” kabi lirik turdagi asarlarda ham keng ijtimoiy voqelik, ijtimoiy davr tasvir etilgan. To’g’ri, lirik turda ko’proq oniy tuyg’ularni harakatga keltiruvchi siqiq voqelik qalamga olinadi, ammo bu oniy tuyg’uni harakatga keltiruvchi lirik tasvir keng qamrovda bo’lishi mumkin:

Soat sindi, soatlar sindi,

Vaqtning iskanjasida,

O’lib ketdi soatsoz bevaqt kabi misralarida shoir vaqtni jilovlash, uni inson irodasiga bo’ysindirish mumkin emasligini ta’kidlash bilan birga boshqa turlarga nisbatan kengroq xronotopni ifodalay olgan. Faqat uni dramatic yoki epic turdagi

¹ Мамарасулова Г. Икки эшик ораси романида замон ва макон. // ўзбек тили ва адабиёти журнали. 2009 йил 2-сон. 55-бет.

singari muayyan obrazning muayyan sujet liniyasidagi harakatlarida emas, balki, qalbni ehtirosga chulg'ovchi nozik sezilmaga aks ettirgan.

“Fikr tug'ularkan, ruhni o'z-o'zidan hech qanday to'siq bilmay vaqt va makon cheksizliklari sari ozod ergashtirib ketaveradi”, - degan edi qirg'iz xalqining buyuk o'g'loni Ch.Aytmatov. aynan bu jumalalarda shoirlarga xos jununlik topib aytilgan. Negaki ijodkor ongida tug'ilgan fikr uning ruhini makon va zamonlar osha uzoq-uzoqlarga eltadi. Tasavvurida vujudga kelajak asarini butun shakli shamoyilini hosil qiladi va kutilmagan lirik chizgilarni bunyod etadi. Masalan, R.Parfi bir she'rida: Uyqumning daryosida cho'mildim, Yotaman uyquning sahrosida, Men qanday bolaman. Balo – men. – deya hazin bir oniy holatni misralarda jilolashtiradi. Bu she'rda badiiy xronotopning shir tasavvurida vujudga kelgan xayoliy modelini kuzatish mumkin.

Boshqa adabiy turlar kabi lirikada ham makon va zamon tasviri asarning haqqoniyligini, hayotiyligini ta'minlaydi. Sherxon ko'z ongida aniq poetik manzarani gavdalanishida xizmat qiladi. Boshqa adabiy turlardagi obrazlar sujetning harakatlanishini ta'minlasa lirikadagi o'ziga xos obrazlar tuyg'ularni, ehtirosni harakatga keltiradi. Va shu orqali qalbni larzaga soladi.

Xronotop tushunchasini adabiy turlar o'rtasiga devor qo'yib o'rganish mantiqan ziddir, ammo ilm fanning barcha tarmoqlari kabi adabiyotshunoslik fani ham rivoj topib bormoqda. Bu esa lirik turdagi makon va zamon kategoriyasini o'rganilishini taqozo etadi.

II BOB

She'riyatda ko'ngil iztiroblar, o'zgaruvchan ruhiy holatlar, kechinma va tuyg'ular shunchaki xabar tariqasida tasvir etilmaydi. Badiiy adabiyotning lirik turi qadimiy bo'lishi bilan birga o'quvchiga tez 'yuqa olishi' bilan, emotsional xususiyatga ko'proq ega ekanligi bilan ham ajralib turadi.

She'riy asarlarning mazmundorligini, tasirchanligini taminlovchi bir qator unsurlar mavjud, masalan, she'riyatda eng ko'p tasvirlanuvchi vatan, ona, yor kabi muborak timsollar borki, haqiqiy shoirgina ularni maftunkor, jozibador tasvirlay oladi, ulardan bahra oladi, ilhomlanadi. Kechinma va tuyg'ular to'yingan kichik-kichik voqealar she'r misralarida harakatlanadi. Bu harakatning tag zahirida esa badiiy xronotop yotadi. Badiiy xronotopning vazifasi shundan iboratki, u she'rning

hayotiyiligini taminlab (undagi haqqoniy mubolag'ani maniqiylashtiradi), tasvir etilayotgan voqelikni inson ko'z o'ngida gavdalanishini ifoda etadi. Mazkur fikrni betakror so'z san'atkori Rauf Parfining quyidagi she'ri misolida ham ko'rish mumkin:

Kichki quyosh turmaklar lochin,

Jozibali bo'lar ertaga!

Ana ko'k ham marjonlar sochdi,

Jozibali bo'lar ertaga!

Anglashiladiki, she'r bandida ona tabiatimizda doimiy sodir bo'luvchi quyoshning botishi va ko'kda yulduzlarning paydo bo'lishi ajoyib metafora asosida tasvir etilgan. Bu misralarni o'qigan she'rxonning ko'z o'ngida darhol qizargan ufq va nur sochayotgan yulduzlar kelai. Bunda kunning tunga almashishi hodisasi tasvirlangan va bu jarayon ro'y berayotgan ona tabiat badiiy xronotop vazifasini bajarmoqda. She'rdagi tasvir moyihatiga e'tibor qaratsak, bu yerda makondan ko'ra zamon ko'proq badiiy funksiyani bajarmoqda, ammo "xronotopda zamon asosiy o'rinda tursa-da, uning hududidagi makonnnig ham muhim badiy-poetik vazifasi bor"¹. Zero, ular biri ikkinchisini mantiqan talab qiladi.

Rauf Parfi she'riyatida badiiy xronotopning aks ettirilishidagi o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, unda zamon va makon kategoriyalari asosan xronikal usulda aks etgan. Bizga ma'lumki, xronikal tasvir usulida badiiy voqelikni vaqt harakatga keltiradi. Yoki unda vaqt tasviri yetakchi ahamiyat kasb etadi. Tuyg'u va kechinmalar musavviri². Bo'lgan Rauf Parfi she'riyatida tong, tun, kecha, kunduz, bahor, kuz zamoniy mazmun tashuvchi timsollar mavjud. Bu esa o'z novbatida shoir she'riyatida xronikal tasvir usulining yetakchiligidan dalolatberadi.

Xronikal tasvirda tabiiy jarayonlar (tong, tun, kun, kecha, kunduz, va boshqalar) tasvirga tortilib, undsa lirik qahramonning o'y-kechinmalari, iztiroblari o'z aksini topgan. Va she'rxonni taxayyul mahzuri bo'lgan baddiyy olamga olib

¹ Рауф Парфи. Акс садо. Тошкент. 1970. 14-бет.

² Mazkur profazani adabiyotshunos Rahimjon No'mon "Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti". T.: Fan, 2007. Asarida Rauf Parfiga nisbatan qo'llagan.

kiradi. Xronikal tasvirda vaqt elementlari tilga olinmasa-da, asarning mazmuniy salomog'i inson tuyg'ularining harakatga kelgan aniq holatini o'zida mujassam etadi. Buni Rauf parfining quyidagi she'rida ko'rsatish mumkin:

Mudrar yarim kecha uyquda,
Bulut suzar va oyni yopar.
Oyni yopar lekin, behuda,
Yana bir on o'tmasdan yonar.

Kecha olar uyqusida dam
Kecha uzra posbon – chiroy...
Seni ko'rgim keldi juda ham,
Ajib qo'shiq aytgan chog'i oy¹.

Asarning bosh leytmotivi “Oyning ajib qo'shiq aytgan chog'i” (bu ajoyib metafora oy nurining kechaga fayz berib yig'lab turgan paytini anglatadi)da lirik qahramonning yorini juda kuchli sog'ingandan iborat. Xasos shoir o'z asarida nekbin tuyg'ular bilan sug'organ maqsadini birdan oshkora qilishni yoqtirmaydi. U avval xronikal tasvirga asoslangan badiiy xronotopni she'rxon tasavvurida shunday mohirona yoritadiki, natijada she'r o'qilgan vaqtining makoni va zamonining ahamiyati bo'lmay qoladi. Negaki, she'rning bu tasvir usulida lirik qahramonning kechinmalariga sherik bo'lgan kitobxon beixtiyor o'zini oy atrofida bulutlar suzib yurgan kechada tasavvur etadi. Bu esa o'ziga xos badiiy joziba kasb etadi. Emotsional kechinmalarni xarakterga keltiradi. Lirik asarlarda makon va zamonga oid unsurllarning ifoda etilishi dolzarb ahamiyatga ega emasdek tuyuladi. Ammo, u adabiy asarda bosh mezon darajasida qolaveradi. Xronikal tasvirga asoslangan she'rlarda makon va zamonga oid muhim baddiy vazifa bajaruvchi leksik komponentlarni quyidagicha tavsiflash mumkin:

I. Zamonni o'zida ifoda etuvchi lirik komponentlar:

¹ Рауф Парфи. Сўнги видо. Тошкент. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутбхоаси нашриёти 2006. 31-бет.

- 1) O'tmish, kelajak;
- 2) Kun, tun, kecha, tong, oydindek oqshom, sahar;
- 3) Umr, yoshlik, kelajak.
- 4) Fasl nomlari: bahor, yoz, kuz ,qish;
- 5) Yil, oy, soat, lahza, kabi vaqt birliklari;
- 6) Lirik qahramonning ruhiy holatini o'zida aks ettiruvchi "uzun hijron", "alamli sog'inch", "orzuli diydor" kabilar.

II. Makonni o'zida ifoda etuvchi leksik komponentlar;

- 1) Ona Turkiston,
- 2) Ochun, ya'ni hayot mavjlangan dunyo,
- 3) Osmon, koinot huvillagan uy, daryo, sahro kabilar,
- 4) Murakkab ruhiy holatlarni ifoda etuvchi "shamolning qo'yni".

"Uyquning daryosi" "uyquning sahrosi" "o'likzor, zimiston" kabi lirik komponentlar assotsiativ tasvirda badiiy xronotopni aks ettirishga xizmat qiladi.

Xronikal tasvirga asoslangan she'rlar boshqa tur she'rlaridan u qadar farq qilmasa-da, o'ziga xos obrazlar olami va g'oyaviy nuqtai nazar bilan baribir ajralib turadi. Bu esa o'z o'rnida individual poetik uslub bilan ham bog'liq hodisa.

Rauf Parfining "Yorug'likni o'g'irlab sekin" deb boshlanuvchi she'rini olib ko'raylik.:

Yorug'likni o'g'irlab sekin,
Tevarakni qurshadi tuman.
Ermak qilib tun cho'kdi lekin,
Eshik ochib chiqmading-ku san.

Deydilarki, sening ko'zlaring,
Afsungarmish, sehr etarmish.
Kimki ko'rsa bir karra seni,
Oyoq yetkanicha ketarmish.

Sovuqni ko'r, yuzni chimchilar,
Masxaraman unga bu zamon.
O'ylaringa kelib sanchilar,
Oy emas ul- u qotil kamon.

Bunda har ne ermaklar meni,
Qorong'idir axir jahannam.
Hech bo'lmasa ochgil darchani
Darpardani ochaqol, jonim!

Bunda lirik qahramon o'z tuyg'ulariga dilkash izlaydi. Tun azobi bilan bog'liq barcha tavsilotlar "sovuq kuzgi tun" manzarasini hosil qiladi. Shoir tabiat obrazlarini birin-ketin tasvirga kiritar ekan, ularni shunchaki sanab o'tmaydi. Barcha sanalgan obrazlar (tuman, tun, oy) kabilar birlashib, yaxlit tarzda kompozitsion tizimni tashkil etadi. Muallif ilgari surgan g'oya – inson ruhiy olamini ochib berishga yo'naltiradi.

Lirik qahramoning bedorligi sababi shuki, sevimli dildor "afsungar" diydor ulashmoqdan bosh tortgan. Shuning uchun ham lirik zamon sifatida sovuq tun tanlangan. Agar yulduzlarga to'la charog'on iliq kecha lirik zamon darajasiga ko'tarilganda edi. She'rdagi umumiy g'oyaviylikka, mantiqiylikka putur yetgan bo'lar edi. Lirik qahramonning "sovuq"qa masxara bo'lishi "oyning qotil kamon" bo'lib o'ylarga, xotiralarga sanchilishi sababi ham shundan. Xronikal tasvirdagi mazkur she'rda mahzunlik, tuyg'ularga mubtalolik, tabiat hodisalari bilan uyg'unlikda qalamga olingan.

She'rning birinchi bandi o'z-o'zidan uning muqaddimasi hisoblanadi. Ammo bu muqaddima boshqa she'rlarning muqaddimasidan tubdan farq qiladi. Bunda tuyg'u va kechinmalar musavviri bo'lgan xasos shoir R.Parfi o'z asarining hayotiyliigi va maniqiyiligini taminlash maqsadida o'ziga xos badiiy olamni yaratgan. Tuyg'ularning qanday xarakter kasb etishiga qarab, "tumanning

yorug'likni sekin o'g'irlab tevarakning qurshashi" tabiatni (shu bilan birga lirik qahramonning mazkur holatini ham) ermak qilib tunning cho'kishi" kabi xronikal tasvirdan foydalanadiki, bu orqali she'rxon tuyg'ular asiri bo'lgan lirik qahramonning mo'jaz olamiga kirib boradi. Shundan keyingina qahramonning visol talabgori ekanligi lirik maydonga olib chiqiladi. She'ning xotimasi ham xronikal tasvirdagi makon va zamon kategoriyasi bilan uzviy bog'liq. Lirik xotimada agar oshiqqa diydor nasib etmasa, uni bu dunyoda har narsa ermaklashi, jahonning, umrining qorong'ilashishi muqarararligi yuksak mahorat bilan aks ettirilgan.

Rauf Parfining "Termilaman olis ufqqa" misrasi bilan boshlanadigan she'ri ham xuddi shunday tasvir asosida qurilgan:

Termulaman olis ufqqa,
Botkan kundan qolmishdur dog'lar.
Yomg'ir urar qorong'ilikka,
Sovuqqina shovillar bog'lar.

Yana keldim mahzun go'shaga,
Bunda bir nay yotibdi sinib.
Qo'y sig'inma ortiq o'shanga,
Qo'y sig'inma menga, sevgilim.

Men hech narsa so'rmasman ,dilbar,
O'tmishingdan so'zlama zinhor.
Men ham bir bor sevganman yetar,
Qarangchi atrofga bahor¹.

Yuqoridagi she'r kabi bu asar ham tabiat tasviri bilan boshlanadi. "olis ufqda botayotgan kundan qolgan dog'lar, yomg'ir yog'ayotgan pallada sovuqqina

¹ Р.Парфи. Сўнги видо. Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2006 йил. 32 бет.

shovullayotgan bog'lar" tasvirini kiritish bilan shoir, avvalo, badiiy xronotopni konkretlashtirgan. Ya'nikim, "Yomg'ir yog'ib, botayotgan quyosh lirik zamon belgilasa, she'ning lirik qahramoni "yana kelgan mahzun go'sha" lirik makon hisoblanadi. She'rdagi hissiy jilvakor voqealarning harakatlanishi uchun ushbu "mahzun go'sha" asosiy makon vazifasini bajargan, ammo u majoziy jihatdan lirik qahramonning uzoq xotiralari yotgan sohildir. Chunki undagi "sinib yotgan nay" quvonch, shodlik, muhabbat, shu bilan birga, g'am, alam, qayg'uga muhtalo bolgan qalb ramzi hisoblanadi. Shuning uchun ham lirik qahramon iztirobdan jarohatlangan ko'ngilni yana ozorlamaslik uchun: "qo'y, sig'inma unga, sevgilim", – deya murojaat qiladi. She'ning xotimasida lirik qahramon suyukli dilbarga murojaat qilib o'tmishdan so'zlamasligini so'raydi:

Men ham bir bor sevganman, yetar...

Qarasangchi atrofda bahor...

Sherdagi "botgan kundan qolgan dog' ", "sovuqqina shovullovchi bog' ", "sinib yotgan nay", "bahor" timsollaridan kelib chiqib, majoziy lirizm R.Parfi uslubining o'tli nafasi, o'zak mag'zi deyish mumkin. Bunday tasvir uslubida lirik xronotop idrok yordamida anglashiladi. She'ning poetik salmog'ini oshirishga xizmat qiladi.

Davr voqeligiga, jamiyatdagi siyosiy vaziyatga, hodisalarga, inson sha'ni erkini, haqni oyoq osti etuvchi adolatsizlik ko'rinishlarini yuzaga chiqaruvchi ijtimoiy zulmga qarshi tug'yon R.parfi she'riyatidagi tkuyg'ular realizmi ustuvor deyishga asos bo'ladi. "Rauf Parfi XX asr o'zbe poeziyasida fikr bilan kechinmaning sintezini badiiy san'at darajasiga ko'targan, sof tuyg'uning tabiiy oqimini, qabariq majoziy ifodasini omuxtalashtirgan batakror uslub yaratdi"¹. Bu uslubning namoyon bo'lishida "Betxoven", "Rondel", "Pablo Neruda o'limiga", "Vatan haqida Berld Ientsshga maktubim", "Karlo koladze diyorida", "Egishe Charneds xotirasiga", "Tagorva Sarbon yomg'iri" kabi bag'ishlov tarzidagi she'rlari alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur she'rlarda R.Parfi o'z dardini o'zga

¹ Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек ўёрияти. – Т.: Фан, 2007. 96 бет .

diyorlarda tasvirlaydi, makon sifatida yiroq o'lkalar tanlansa-da, ijtimoiy zulm hukm surgan XX asrning ikkinchi yarmi majozan lirik zamon vazifasini bajaradi. Bu borada R.Parfining "Tagor va Sragon yomg'irlari" she'ri diqqatimizni jalb etadi:

Shoir, chataka qush uyg'otdi seni,
Parishon yomg'irlar ichra parihon.
Omonlik izlaydi srabon seli,
Bir Vatan so'raydir g'rib srabon.

Shoir yuragini ochdi va yomg'ir
So'zlarga aylandi, har nadan judo
Uxlab yotganlarni uyg'o, ey shoir,
Yo'qsa ummonlar to'nkarar xudo.
Axir haqiqatga erk ham kerak-ku...
Mondar tog'da tangrilar yovuzdir axir.
Bo'ron ko'zlariga kelmaydir uyqu,
O'ltirar naq Vaytaron to'g'onida
Yomg'irlarga serob yashadi shoir.
Uryon yurak bilan mangu qoldi u.

Ko'rinadiki, shoir mazkur she'rda ham xronikal tasvirdan mohirona foydalangan. Srabon – Hindistonda yomg'ir juda ko'p yog'adigan fasl, uni Pashkol mavsumi deb ham yuritadi. Chataka qush esa faqat yomg'ir faqat yomg'ir iste'mol qiladigan afosonaviy qush. Shoir bu sonetida anglanishi qiyin bo'lgan obraz va tushunchalarni keltirish bilan she'rdagi badiiylilikdan ko'ra informatsion axborot berishga ko'proq e'tibor qaratganday tuyuladi. Ammo she'rlardagi kitobxon tomonidan oson hazm qilinishi qiyin bo'lgan murakkab timsollarning mavjudligi shoirning ijodiy monerasidagi uslubiy jihatlardir. Birinchi bandda Poshkol mavsumi lirik zamon bo'lsa, Tagorning vatani lirik makon darajasiga ko'tarilgan.

R.Parfi “oarishon yomg’irlar ichra parihon” bo’lgan shoirni afsonaviy Chataka qushi uyg’otganini, qudratli Srabon seli ham erk va adolatsizlikdan g’arib kuyga tushib qolganini, omonlik izlayotganligini shoirdan bir vatan so’rayotganini shunday majozga o’ran ifodalaydiki, natijada tuyg’ular realizmi orqali vatanga sadoqat, erk kabi tushunchalar she’rning mazmuniy salmog’ini oshiradi. Lirik qahramon kechinmalari yog’ayotgan yomg’irga esh. Undan surur umid tuyadi. Shu ma’noda, uning nazdida har xil talofatlar yetkazishi mumkin bo’lgan Srabon seli ham omonlik izlaydi. Hatto sel ham Vatandan be vatan bo’lib, erk to’la bir diyor o’raydi. Xullas, shoir sonetning birinchi to’rtligida o’ziga xos badiiy manzara yaratgan. Keying bandda shoir maqsadga ko’chadi. Va tagor yuragini ochganda Pashkal mavsumida yog’ayotgan yomg’irlar da’vat, chaqiriq, ma’nosidagi so’zlarga aylanib, erkdan ajralib, hamma narsadan judo bo’lgan g’aflatda uxlab yotgan xavfni uyg’otishi zarurligini ifoda etgan. She’rdagi yomg’i timsolida soflik, beg’uborlik shuningdek, dard, fig’on kabi majoziy ma’no aks ettirilgan. Bu yomg’ir uxlab yotganlarni uyg’otmasa, ularning ustiga xudoning ummonlarni to’ntarishi muqararlighi hazing bir kechinmalar bilan tasvirlanadi. Shoir asaridagi voqiylikni majoziy obrazlar orqali ifoda etmasa, she’r orqali berilayotgan tushunchalarni kundalik hayotdagi oddiy axborotdan farqi qolmaydi. Shu bois ijotkor asarning poetic qiymatini oshirish maqsadida konnitativ mazmundagi leksemalardan unimli foydalanadi. Sonetning keying bandlarida haqiqat va erk tushunchalari bir-birisiz mavjud bo’la olmasligi shoirning (Tagor-K.Q) vatanida bu tushunchalar yo’qligi uchun Mondortog’ (afsonalarga ko’ra xudolar majlis qiladigan tog’- K.Q)da tangrilar ham yovuzlashib ketganligi, bo’ronning ko’zlariga uyqu kelmasligi borazi talqin etilgan. Ayniqsa, so’ngi “ bo’ronning ko’ziga kelmaydir uyqu ” misrasida assotsiativ tasvir usilidan unimli foydalanilgan. Shu o’rinda savol tug’iladi; nega “bo’ron”ni ko’ziga uyqu kelmaydi? Chunki Tagor vatanida Srabon yomg’iri va xudolargina emas, balki, bo’ron ham haqiqat va erk tuyg’ulari bo’lib, qo’yilganidan norizo. Ular ham dardli fig’on chekadi. Bunda lirik xronotop maxsus leksik birliklar bilan ifodalanmasa-da, shoir yashagan davr va uning vatani

ekanligi zimdan anglashiladi. Sonetning eng so'nggi qismi ham boshqa tarkibiy qismlar bilan yaxlid bir mazmuniy butunlikni hosil qilgan. Unda tasvirlanishicha, shoir Vaytaran, ya'ni razolat daryosida "yomg'irlarga serob" yashadi. Bu yomg'irlar oddiy yomg'ir emas, haqiqat va erk uchun kurashishga da'vat etivchi shoirning so'zlari. Aniqrog'I shoir yuragini ochganda, so'zga aylangan yomg'irlar inson uchun eng oily ne'matlardan biri – erk uchun yog'gan yomg'irlarga serob yashagani uchun "uryon yurak bilan mangu qoldi u". she'rda adoqsiz bo'shliq qaridagi ro'yo tasvirlanmagan. Unda yomg'ir og'ushidagi haqiqat va erk bo'g'ib qo'yilgan vatan tasvirlangan. Ishosa bo'ladiki, tangrilari norozi, bo'ron tinmaydigan vatanda yomg'irdagi oydin shabboda epkini ertaga otajak tonglar umidini uyg'otadi.

R.Parfining marsiya tarzida yozilgan she'rlarida vatan uchun qurbon bo'lgan buyuk insonlar xotirasi qalamga olinadi. Ularni oddiy ifoda yo'sinida tasvirlamaydi. O'ziga xos xronikal va assosiativ tasvir usullarida majoziy lirizm ko'lam bilan tasvir etadi.

R.Parfining e'tiqodicha, har qanday shoir uchun vatan – uning tug'ilib o'sgan joyi bilan birga butun dunyo ham uning uchun vatan hisoblanadi. Shu boisdan shoir she'riyatida asosiy makon sifatida ona Turkiston va butun insoniyatning hayot tajallisi hisoblangan ochun tasvirlanadi.

R.Parfi O'zturk she'riyatida so'z konkret ma'no tashib kelishidan tashqari, inson shaxsi va ma'naviyatidagi muayyan go'zallikni, timsolli yoki ibratli mazmunni ifodalashiga ko'ra ijtimoiy-falsafiy, badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi. R.Parfi izlanishlarida so'zlar tabiatidagi shartli-lik, kosa tagidagi nimkosa tarzida ifodalanadigan ko'chma ma'nodorlik, ayniqsa, ustivor. R.Parfining so'z ustida ishlash zaxmati shundan iboratki, "So'zlar" she'rda kuzatilganidek, u "Oq binoda qalin va oq ko'rpalariga o'ranib-chirmanib, qator so'rilarda" uxlab yotgan qadimiy so'zlarni uyqudan uyg'otadi. Ularni yashashga, kurashga, faoliyatga safarbar qiladi. Zero, shoirning o'z ta'biri bilan aytganda, she'riyat muttasil yangilanib turadi. So'zlarning ma'nosiga ko'ra doimo yangilanib turishi esa uning asl mohiyatini

tashkil qiladi. R.Parfi Turon-Turkiston mavzuiga bag'ishlangan she'rlarida falsafiy, ijtimoiy mazmuniga ko'ra so'zlarning qaddini-yu qadrini bir bahya baland ko'taradi, qanotini yuksaltiradi, ularga parvoz beradi. Shoirning "So'zlar", "She'riyat", "Xarita", "Ona tilim", "Turkiston", "Cho'li Iroq", "Uyg'onar Turkiston, uyg'onar dunyo", "Qadimiy turkiylardan", "O'zingni ayama, borayotgan ildiz", "Anglatgani anglagan boshlari qani" singari o'nlab she'rlarida Turon-Turkistonning olis o'tmishi, buguni va kelajagi bilan bog'liq turfa badiiy talqinlar silsilasini kuzatamiz. Badiiy So'zning shunchalar katta salohiyati borligidan hayratlarga cho'mamiz.

"So'zlar" she'ridagi badiiy talqinga ko'ra, Inson bu-so'roq gap, undov gap, darak gap. So'zlar bizga yashamakni o'rgatar, : "Bir ajab so'zlardir peshonada to'plangan ajin". Qo'llarimiz ham fikrchan So'zlar. Shu ma'noda, Turon haddan ziyod go'zal so'z. Bu tongotaru quyoshning botishi, yo'ldagi kishibarchasi ajoyib jumalarga o'xshaydi. Ular umr, taqdir, tiriklik satrlari. "Moziyga urilib, sindi ovozim", deydi shoir. Turonzaminning o'tmishi, ko'hna Turkiston xotiralari, ajdodlarning shonli hayoti tarixi lirik qahramon ruhini ko'tarishi, tafakkuriga quvvat berishi bilan barobar mahzun kayfiyatlarga ham soladi. Ovozini siniklashtiradi.

Bu - olis quyoshdir kuyinib yonar,

Olis esdashklar bo'lmaydi ado.

R.Parfi she'riyatidagi poetik obrazlar va timsollarning o'ziga xosligini ular zimmasidagi ma'nolar mohiyatidan anglaymiz. Shu o'rinda, timsollar tabiatini ochib beruvchi unsurlar orasidan xarakterli ikki jihatiga to'xtalib o'tish joiz ko'rinadi. Xususan, bu narsa timsollar tabiatidagi botiniy va zohiriy alomatlaridir. Chunonchi, G'.G'ulomning "Sog'inish" she'ridagi o'g'lini urushga kuzatayotgan ota-bu azamat Vatan, fidoiy millat timsoliga aylangan. Xamid Olimjonning "O'rik gullaganda" she'ridagi bahor timsoliga aylangan o'rik gullari - ramzning zohiriy ko'rinishi. O'quvchi she'rni o'qigan zahoti ko'z o'ngida, tasavvurida ana shu simvolik ma'no kasb etgan poetik belgilar yaqqol suratlanadi. She'rdagi poetik

obrazlar ham u qadar murakkab emas, o'quvchining ong-shuurini taxayyullarga, po'rtanali o'y-fikrlarga chulg'ayotgani yo'q. Endi, timsollarning botiniy ko'rinishi ham borki, u serqatlam, sertarmoq, tagdor, ko'chma ma'no qirralariga eta.

R.Parfi so'zning timsolli ma'no jilvalarini kashf etishda o'ziga xos betakror mustaqil yo'lga ega bo'lgan shoir. Shoir yangi shaklda yangi gap aytish uchun tinmay izlanar ekan, har birimizga tanish so'zlar zimmasiga yangi va chuqur ma'nolar yuklaydi. Mazkur yo'nalishda R.Parfi she'r satrlarini sindirishni yaxshi ko'radi. Bundan so'zning badiiy-estetik ta'sir kuchi, salmog'i ortsa ortadiki, aslo bukilmaydi, susaymaydi. "Lutfixonim. Uyg'on bolam", "Uyg'onar Turkiston, uyg'onar dunyo", "Turkiston yodi", "Og'riq" singari vatanparvarlik ruhi bilan yo'g'rilgan o'nlab she'rlarida milliy birlik g'oyasining rangin qirralari yoritiladi. ("Uyg'on, uyg'on bolam, uyg'ongil, ey dil"; "O, sabr daraxti, qutlug' Turkiston"). Ko'ngil hur tug'ilgan edi. Ruhning omonligi, erki "azal go'zallikning shamini yoqadi". Yorqin saharlarda "Kelur ot o'ynatib haloskor sarboz". So'z shunday bir ruhoniylar vatani, u ushalmagan, kelajakdan umidvor xayollarning ham vatani. Lirik qahramonning holati, bu - Ko'lankalar yurtida, Sharpalar orasida oftobga tikilib o'tirgan Xayolni eslatadi. U o'z orzu-o'ylarini "Isming nima?", deb so'roqqa tutgandek bo'ladi. "Mening ismim ozodlik", deb javob beradi u.

— Farzandlaring qani, nega bir o'zing yolg'izsan?

Bola-chaqalarim ko'p edi. Birisi taxtga chiqib, toj kiyib qurbon bo'ldi. Ikkinchisi, toju taxtga qasida o'qiyman, deb es-hushidan ayrildi, tildan qoldi. Qolganlari arosat vodiysida tentirab yurishibdi...

Xayol oppoq bulutlar og'ushiga singib yuqoldi...

Xullas, shoir talqinidagi ishq bu-tush misoli tutib va yetishib bo'lmas Erk, Haqiqatga erishish. Bu fikr-tuyg'u ruh erkinligi demak. Shu jihatdan ham, u badiiy So'z zimmasiga g'oyat chung va teran ma'nolar yuklaydi. Chunonchi, So'z bu shaxs erki, millat va Vatan ozodligi, fikr va ruh ekinligi ana shu So'zda mujassamlashadi. R.Parfi obrazlari, timsollari, badiiy umumlashmalari orqali

So'zning ana shu taxlit turfa ma'no qatlamlarini, yangi she'rining falsafiy-estetik tabiatini inkishof etayotir.

Shoir asarlarini ma'lum bir tasvir usuliga bo'y sindirmagan, Balki uning asarlarida uchraydigan umumiy xususiyatlar orqali tasvir usullarini aniqlash mumkin. Lirik xronotopni maxsus leksik birliklar bilan asarda ochi-oydin ifoda etmagan. Shuning uchun ham R.Parfi she'rlarining lirik xronotopi asarning barcha poetik xususiyatlari bilan uzviy bog'liqlik kasb etadi.

III BOB

Assotsiativ tasvirda badiiy xronotopning o'rni (Rauf Parfi O'zturk she'riyati misolida)

Iste'dodli ijodkor Rauf Parfi o'z she'rlarida dunyo o'rnida "ochun", daraxt o'rnida "og'och", quyosh o'rnida "Mehra", dushman o'rnida "yog'iy", o'y-xayol o'rnida "fikrat" kabi bir qator maxsus leksik resurslardan foydalanish orqali hozirgi o'zbek adabiy tilini eski o'zbek adabiy tilidan uzoqlashib ketishini oldini olgan hamda tanizor (ozor yetkazuvchi), jimiston (sokinlikka mahkum bo'lgan go'sha), asir diyda (mushtoq nigoh), o'likzor (qabriston), singramoq (o'kinmoq) kabi neologizmlarni qo'llash orqali tilimiz leksikasining boyib borishiga ham o'z hissasini qo'shgan. Mazkur uslubiy xoslangan leksemalar nafaqat shoirning tasvir usulini, ijod monerasini belgilashga xizmat qiladi, balki ular shoir she'riyatidagi assotsiativ tafakkur ko'rinishlarini namoyon qiladi.

“Betakror soʻz sanʼatkori Rauf Parfi sheʼriyatining aksar qismi assotsiativ tafakkur hosilasidir”¹. Unda ramziy obrazlarga qayta-qayta murojaat qilinadi va shu orqali ijodkorning ijtimoiy voqelik, borliqqa boʻlgan munosabati sheʼrlarida aks ettirilgan. Assotsiativ tasvir birliklari ramziy obrazlarga murojaat metafora, oksamaron, contrast usullardan afoydalanish hissiy tafakkur psixologiyasini yoritishga xizmat qilgan.

Taxayyulga asoslangan fikrlash tarzi badiiy-estegak tafakkur tabiatining uspuvor belgilaridan biri sanaladi, Badiiy tafakkur esa ijodkor bilan ijtimoiy voqelik va borliq oʻrtasidagi munosabatlar xosilasi sifatida vujudga keladi. Ushbu xodisa ijodkorning fikrlash yoʻsini orqali oʻzligini namoyon qiladi. Shu maʼnoda «adabiyot bir vaqtning oʻzida ham oliy ong shakliekanligini, ham maʼnaviy-ijtimoiy hayot shakli ekanligini isbotlab kelayotir»², Mazkur holatlarning badiiy-estetik ifodasi sheʼriyatda oʻziga xos shakllarda oʻz ifodasini topadi. Assotsilar poeziyada koʻchimga asoslangan boʻladi. Xususan, metaforalar Rauf Parfi sheʼriyatida hissiy tafakkur psixologiyasini oydinlashtirishga xizmat qiladi. Shoirning “Zangori ogʻochman, Hozir osaman” satrlari bilan boshlanuvchi sonetida lirik qahramon – shoirning badiiy idroki metaforalar shaklida namoyon boʻlgan. Sonetda zangori ogʻoch, Mehr quyosh, qish, bahor, barg kabi metaforalar qoʻllanilgan. Ular murakkab taxayyulli poetic obrazlar talqinida muhim oʻrin egallagan. Lirik xronotopning shoir tafakkuriga xos boʻlgan xayoliy modelida umumlashgan.

Zangori ogʻochman. Hozir osaman,

Qayta tirilaman toʻlib seherga.

Ul Meraning qanotini yozaman,

Dunyolarni toʻldiraman mehrga.

¹ Файзуллаева О. Р. Парфи шеърларида ассоциатив тафаккур кўринишлари. Ўзбек тили ва адабиёти // 2011 йил. 1-сон, 99-бет.

² Уоррен О. Теория литературы. М. 1978. С. 257

Rauf Parfi she'riyatida yuqorida ta'kidlaganimizdek, darak poetic obrazi o'rnida ko'p hollarda asil turkey o'g'och so'zi qo'llanilgan. Yuqoridagi sifatlarda kuzatilganidek, og'och – zangori shaklda, ya'ni lirik qahramon kechinmalari ifodasida shoirning ijod pallasi tasviri o'rin olgan. Ijod pallasi holati yashnagan yashil daraxtga mengzalgan. Yashil daraxt haqida so'z borarkan shoir assotsiativ holatni vujudga keltiradi. “Hozir osaman” jumlasini o'z-o'zidan savol tug'diradi. Lirik qahramon daraxt shoxlariga nimani osmoqchi va bu holat qay ma'noda? Ayonlashadiki, “zangori og'och”da lirik qahramon o'z mevalarini paydo qilmoqchi. Ana shu mevalarda u qaytadan jonlanadi. Mevalar esa pishib yetilishi uchun quyoshni, qadimiy turkey tushuncha – Mehrani chorlashadi. Mehra esa mevalarni larzonlashtiradi. Sonetning ikkinchi katrimida esa, lirik qahramon kayfiyati foje holat–chizgilarda namoyon bo'ladi. “Qish” metaforasi “boshida azaliy oq tosh”, “qo'ni bulutlarga burkanib qotgan” kabi epitetlar tasavvurimizda insonning ayoqliq musibatli holatlarini esga soladi.

“Bahor” metaforasiga muzlagan otash, “zulmatning jizg'anak tonglari” kabi epitetlar uyqash kelayotir. Bu esa inson umrining bahori ham qonli tosh qotgan muzlar og'ushida ekanligiga ishora qiladi. Mazkur katrin kulminatsion holat hisoblanadi. Ijodkor oddiy insondan farqli o'laroq har bir anzaradan o'zgacha bir viqor oladi. Xususan, fasllar tasvirida ham teran nigoh orqali o'zgacha manzaralar chiza oladi. Bu manzaralarni o'zida ifoda etgan obrazlar silsilasi harakatga kelar ekan majoziy ma'nodagi lirik xronotopni vujudga keltiradi.

Sonetning terset qismida lirik qahramon ijodkor sifatida o'zligini, individual juhatlarini barg, xalq, olamon, shoir, shoh kabi poetic shakllarida beradi:

Abadiy koinot birla qolaman,
O'lsam chirqiraydi ovozim tanda.
Eng yangroq yulduzni uzib olaman,
Ezilgan, xo'rlangan barg man tubanda.
Yolg'iz o'zim xalqman, o'zim olamon.
Men shoirman, axir, shoh man, ey banda.

Ijodkorning koinotda abadiy qolishi albatta uning ijod mahsullari samarasi. Ijod namunalari umumbashariy ahamiyat kasb etsa, ijodkor shaxsi abadiyatga dahldor bo'ladi. Eng yangroq yulduzni uzib olishi esa, ijod osmonida porlayotgan yulduzga egalik qilish degani – bu mangulikka ishora. Barg poetic obraziga “ezilgan”, “xo'rlangan” epitetlarning ishlatilishi ijodkorning hokzorigiga ishora. Bu holat sonetning yechimi sanaladi. Shoir o'zligini topganda o'z “men” iga bo'lganida esa, o'z ko'nglini “shoh”i darajasiga ko'taradi. Ko'rinadiki, asl lirik asar “tilsiz sezgilarga so'z va obraz beradi, ularga alohida umr bag'ishlaydi”¹.

She'ning mazmuniy salmog'ida kutilmagan tasvir natijasida anglashiluvchi murakkab tahayyulli umumbashariy g'oya yotibdi. Majozilikka asoslangan tasvirni R.Parfining boshqa asarlarida ham ko'rish mumkin. Bunday asarlarida badiiy xronotop majoziy obrazlarning makoniy va zamoniyl o'rinishuvini ta'minlaydi:

Yulduzlarning achchiq nurlariga chirmashar,
Yular oyning namxush sochlari.
Falakka temulib qolgan ko'zlaring.

Misralarning mazmuniy salmog'idan anglashiladiki, shoir bir lahzalik oniy kafiyatni yulduz, oy, ko'z obrazlarida majozilikni yuklash orqali ifoda etgan. Ko'zga nisbatan “falakka temulib qolgan” epitetining qo'llanilishida o'tmish yoki lirik qahramonni bezovta qilayotganligini idrok qilish mumkin. “yulduzlarning achchiq nurlari”, “oyning namxush sochlari” singari metaforalarda shoirning badiiy idroki, murakkab tahayyuli, tasvir usuli bo'y ko'rsatib turibdi. Ayniqsa,

¹ Белинский В. Г. Маколарар. – Т.: 1948. 92-бет.

“achchiq nurlar” birikmasidagi oksamaron assotsiativ tafakkur ko’rinishining yorqin misoli bo’ladi.

Badiiy xronotop mavjud bo’lishi uchun asarda voqea harakatga kelishi lozim. Bu she’rda esa oniy bir kayfiyat aks ettirilmoqda. Undagi xronotop asarning hissiy ko’lamidan anglashiladi. Bu she’rda assotsiativ tasvirdagi voqelik mavjud:

Falakka temulib qolgan ko’zlar yulduzlarning achchiq nurlariga chirmashmoqda, oyning namxush sochlarini yulmoqda. Ularning tak zamirida majoziy ko’chim mavjud. Ya’ni falakka temulib qolgan ko’zlar o’tmishni xotirlayotgan yor, yulduzning achchiq nurlariga chirmashishi taqdirning achchiq qismatidan norozilanish, oyning namxush sochlarini yulish – unga hech kimni jumladan oyning ham rahmi kelishini xoxlamaslik. Bu she’rda o’z aksini topgan mikro hukmlar – ko’ngil kechinmalaridir. Shuning uchun ham makon va zamon birliklarini his qilish orqali irok etish mumkin. Bu yerda tuyg’ular tug’yoni harakatlanayotgan ko’ngil lirik makon darajasiga ko’tarilgan. Ammo bu ko’ngilning egasi bo’lgan lirik qahramon yashayotgan ona zamin mutloq makon hisoblanadi. Lirik zamon esa ko’ngil iztiroblari harakatlanayotgan vaqt, siqiq, ixcham oniy lahzalardan iborat.

Assotsiativ tasvirda badiiy xronotop ham majoziy ahamiyat kasb etadi. U shoir kechinmalarini qay darajada hissiy ekspressivlikka egaligiga qarab xayoliy modellarda namoyon bo’ladi. Falsafiy nuqtai nazardan yondashsak, bunday she’rlarda ham makon va zamonning o’rni katta, negaki bu uzviy aloqada ikki tushuncha har qanday asarning real hayot bilan bog’lab turuvchi, ularni mantiqiy, hayotiy xususiyatlarini ta’minlovchi nazariy kategoriyadir. Assotsiativ tafakkur mahsuli bo’lgan she’rlarda badiiy tilning eng nodir qirralari namoyon bo’ladi. Polisemantik ma’nodagi so’zlardan keng miqiyosda foydalaniladi va shu orqali asarning poetic qiymato orta boradi. “adabiy til harchand boy bo’lmasin, badiiy tilga teng kela olmaydi. Negaki, sheva, lahja, jargonga oid so’zlar kasb-hunar atamaları, so’kish va qarg’ishlar unga kirmaydi. Adabiy til artib, tozalab qo’yilgan

chiroyli idishga o'xshaydi. Badiiy til esa, faqat so'z ma'nosini emas, uning "ohangi", "rangi", "tami", "isi"ni ham tashishga qodir"¹.

Shunday ekan assotsiativ tasvirdagi asarlarni til xususiyatlari ham ramziylikka boy bo'ladi. Ularda so'zlarning yondash ma'nolari, nozik qirralari namoyon bo'ladi. Makoniy va zamoniy unsurlarni anglatuvchi leksik komponentlar ham ramziylikka, majoziylikka ega bo'ladi:

Kuygan daraxt bo'yniga osilar,
Oq bulut, oppoq bulut.
Yig'lagali ketar keyin,

Shoirning mazkur uch misralik she'ri o'zida yirik bir asaening mazmunini ifoda etgan. Oq bulut – bu lirik qahramonning orzulari, umidlari, ular kuygan daraxt ya'ni yurakka ko'milgan armonlar, qayg'ularning sheriklari. Amalga oshmay armonga aylangan orzularni ziyorat qilgan oq bulut (yangi umidlar) shuning uchun ham yig'lagali katadi. She'rda bor yo'g'I ikkita obraz mavjud. Ular "kuygan daraxt" va "oq bulut" lardan iborat. Xassos shoir bu she'rda assotsiativ tasvirdagi ikkita metaforadan foydalangan:

- a) oq bulutning kuygan daraxt bo'yniga osilishi;
- b) oq bulutning keyin yig'lagali ketishi.

Vaqt tinimsiz bir xil harakatda bo'lganligi uchun o'zida tiriklik nishonasi bo'lgan har qanday mikro va makro elementlar yoshini ulg'aytirib boraveradi. Shuningdek, yangidan tiriklik nishonalarini ham vujudga keltiraveradi. Shuni inobatga olib yuqoridagi she'rni tahliliga yondashsak, undagi yashirin mazmundorlikni anglaymiz, his qilamiz.

She'rdagi lirik qahramonni orzu chashmalarini shavqatsiz vaqt qurutgan – armonga aylantirgan. Shu boisdan u "kuygan daraxt"ga o'xshaydi, ammo vaqt

¹ Хошимов Ў. Дафтар ҳошиясидаги битиклар. – Т.: Шарқ. 2005, 177-178 бетлар.

doimo harakatda bo'ladi, qalbdagi orzular batamom tugallanmaydi. Ular yangi orzu chashmalarini pok insoniy orzu umidlarini vujudga keltiradi. Ular go'yo "oppoq bulut"ga o'xshaydi. Bunday she'rlardagi badiiy xronotop boshqa adabiy turdagi obrazlarning harakatlanishi uchun (syujetni taminlash uchun) kerak bo'lgan makon va zamondan jiddiy farq qiladi. Assotsiativ tasvirdagi she'rlarning badiiy xronotopi sherxon tomonidan his qilinadi, idrok qilinadi. Ulardan makon va zamon nisbiy, ammo, mavjud emas deb bo'lmaydi. Rauf Parfining quyidagi she'ri misolida fikrimizga oydinlik kiritishimiz mumkin:

Oy, nurlaringni yig'ishtirib ol,
Qora pardalaringni tashla yuzingga, tun,
Men yorim –la vidolashgali keldim.

Anglashiladiki, shoir mazkur she'rida oy vat un timsollarini contrast tasvirlab assotsiativ tafakkur mahsuli bo'lgan lirik kartina yaratgan. Unda quyidagi uchta voqea aks ettirilgan:

- a) oyga nurlarni yig'ishtirib olish haqida aytilgan hukm;
- b) tunga qora pardalarini tashlashi haqida aytilgan hukm'
- c) lirik qahramonning yori bilan vidolashishi uchun kelgani haqidagi hukm.

Ushbu hukmlarning birinchi va ikkinchisi assotsiativ tafakkur mahsuli hisoblanadi. Ya'ni ularda metaforaning she'riyatdagi eng go'zal namunalari qo'llanilgan. Uchunchi hukumda esa, tasvir kutilmaganda lirik qahramonning o'ziga qaratiladi. Va unda murakkab tahayyulli majozilikdan foydalanilmagan. Ammo she'rning semantic yadrosini mazkur hukm tashkil etadi. She'rning poetic zamoniga oid leksik elementlar qalamga olingan – oy nur sochin turgan kecha deb olishimiz mumkin. Ammo makoniy elementlar tilga olinmagan – uni lirik qahramonning yori bilan vidolasuvi yuz beradigan mahsun bir go'sha deb hisoblash mumkin.

Lirik qahramonni oydan nurlarni yig'ishtirib olishini, tundan qora pardalarni yuziga tashlashini so'rashidan asosiy maqsad shuki, u yorini so'ngi bor diydoridan bahramand bo'lmoqchi. Ushbu manzara she'rdagi obrazlarning badiiy vazifasi lirik qahramonning ayriliq iztirobini tasvir etishdan iborat. Ayni paytda bu obrazlar makon va zamon bilan uzviy aloqada bo'lib, she'rning hayotiy asosini ko'rsatib turibdi.

Rauf Parfining yapon xalqlari ta'sirida ulardan estetik oziqlanish natijasida yaratilgan uch misrali she'rlari shaklan soddagina, oson o'qiladi, ohangi o'ta mayin, amo kishini chuqur falsafiy mushohadaga chorlaydi. Ularning zamiridagi ma'noni anglab olish o'quvchiga hamisha ham oson emas. Chunki, shoir deyarli har bir she'rida folklordagi kabi sirli, sehrli izohlash mumkin bo'ladigan ruhiy holatlarni poetic manzrasini chizadi. Ularda murakkab tahayyul mahzumi hisoblangan assotsiativ tasvir yetakchilik qiladi. R.Parfining she'rlarida ro'yo, oy, quyosh, tong, tun, yomg'ir, qor kabi obrazlar ko'p uchrasa-da, ularga ushusizlik butunlay yot. Adabiyotshunos olim Qozoqboy yo'ldoshev ta'biri bilan aytganda "Rauf Parfi eng so'nggi imkonga qadar sayqallash takomiliga yetkazishdan erinmaydigan shoirdir¹.

Shoirning ko'pchilik she'rlari muayyan syujetga ega bo'lib, lirik qahramondan boshqa obrazlar ham ishtirok etsalar-da, lekin ularda voqea-hodisalardan ko'ra, tuyg'ularni aks ettirish ustuvorlik qiladi. Masalan, "Osmon shu qadar toza" she'rida:

Osmon shu qadar toza, rahming keladi,

Uzoq qarab turolmayman bevafo,

Sening suratingga to'lar qorayib – singari tasvirlar to'rtta bo'lishda aks etsa ham shoir insonning ichki "men"iga tashqi omilkorlik bilan yondashib:

To'xta, vijdon, qayoqqa ketayapsan,

Qayga qochasan bevafo xotin kabi,

¹ Йўлдошев Қ.Ёниқ сўз. Тошкент. Янги аср авлоди. 2006. 385 бет.

Haqqing yo'q, bir o'lik hok xiyonat uchun. – deya o'zining kutilmagan lirik chizgilari boy tuyg'ularni izhor etadi va she'ring ta'sirchanligiga chaqiriq, da'vat “yo'nalishini qilma, xiyonatni diyonat bilma” degan mazmun mohiyat tasvirlangan.

Xitoy xalq maqollaridan birida: Vijdon insonni tushsiz g'ajib tashlashi mumkin”, – deyilgan. Unda insonni harakatga keltirishi, iztirob chektirish, o'yga cho'mdirish mumkin bo'lgan cheksiz qudrat mavjud. Rauf Parfi kishining insonlik asliyatiga, mohiyatiga xizmat qilmaydigan vijdonni “bevafo xotinga” o'xshatgan. O'lim insonni izmiga bo'ysunmasligi mumkin, ammo vijdon hamisha uni izn-itiyoriga bo'lishi kerakligi shoirona talqin etgan. Anglanishi qiyin bo'lgan vijdonni aniqrog'i kerak paytga kishini diyonatga chorlaydigan vijdonni “bevafo xotin”ga izlanishi assotsiativ tahfakkurning bir ko'rinishidir. Qalbdagi adolatni tarozisi bo'lgan vijdonning bunday tashbeh qilinishi zamirida Rauf Parfi she'riyatiga xos bo'lgan majoziylik yotibdi.

Haqqa, haqiqatga tashna shoir she'ridagi badiiy xronotop o'sha mavhumlik kasb etgan. Uni konkret ifodalay oluvchi birorta leksik birliklar tilga olinmagan. Chunki bu she'rda lirik qahramonning ichki “men”i bilan bo'lgan munosabatdagi hosil bo'lgan oniy bir tuyg'uni lirik kartinasi tasvirlangan. Unda lirik qahramonni u yashab turgan ochun bilan bog'lab turgan birdan bir vosita mavjud. Bu vosita uning inson sifatida o'z vijdoni bilan hisob-kitob qilayotgan jarayon. Mazkur jarayon orqali lirik makon anglashiladi. She'rdagi qalb tug'yonini og'ir bir holati esa, lirik zamon belgilarida xizmat qiladi. Agar shoir mazkur she'rda makoniy va zamoniy mazmunni o'zida aks ettirgan leksik komponentlardan foydalansa, asar badiiylikdan ko'ra information xarakterga ega bo'lib qoladi. Chunki, “lirik tabiatgagi ixchamlik, siqqlik ko'chma ma'no tashuvchi badiiy tasvir vositalariga ko'proq ehtiyoj seziladi¹.

¹ Ҳасанов Ш. Достон таркиби ва табиати. (Монография). –Самарқанд. 2011. 17-бет.

Umumiy xulosalar

Zamon va Makon (keng ma'noda Fazo va Vaqt) kategoriyalari badiiy adabiyotda ham muhim ahamiyatga ega. Biron-bir badiiy asar yo'qki, unda ifodalanayotgan voqea aniq bir zamon va makonda ro'y bermagan bo'lsin. Zamon va makonsiz asarni tasavvur etish mumkin emas. Unda qatnashayotgan personajlar esa qalamga olingan davr, muhit va joyning aniq vakili sifatida namoyon bo'ladi. Bu badiiylikning muhim shartlaridan biri bo'lib, hayotiylik va xalqchillik fazilatlarini ta'minlashga yordam beradi.

Badiiy asarda zamon va makon kategoriyasi ijodkor dunyoqarashi hamda adabiy tafakkuri darajasi bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. Ijodkor o'zi qalamga olayotgan davr hamda hudud to'g'risida yetarli ma'lumotga, tugal xulosaga ega bo'lishi kerak. Zamon va makonning mavhumligi kitobxonning hafsalasini pir qilibgina qolmay, ayni chog'da asar kompozitsiyasining yaxlitligiga

ham putur yetkazadi. Pyer Kornelning fikricha, har qanday badiiy asar voqyelik, vaqt va joy birliklaridan tarkib to pishi kerak. Uning aytishicha, san'atkor "imkon qadar vaqt birligiga erishishga harakat qilishi shart"¹.

Chindan ham, zamon va makon badiiy adabiyotning muhim estetik kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Chunki har bir asar inson hayoti va tabiat olamining intihosi ekan, unda aks etayotgan inson umrining ma'lum bir qismi va shu vaqt ichida hayot kechirgan joyi tasvirlanadi. San'atkorning sehrli qalami yordamida odam, tabiat va predmet bir nuqtada birlashadi, aniq zamon hamda makon ko'zgusida ularning bevosita va jonli qiyofasi namoyon bo'ladi. Buni san'atkor badiiy obrazlar orkali ifodalab beradi. Binobarin, badiiy adabiyotda ham inson hayoti, tashqi olam ko'rinishlari muallifning ijodiy tafakkuri asosida qayta ishlanadi.

Asar badiiyligining asosiy shartlaridan biri unda tasvirlanayot-gan voqyea-hodisalarning aniq zamon va makonda yuz berishi, yashayotgan personajlarning hatti-harakatlari, ular orasidagi o'zaro munosabatlarning ishonarli tasvirlanishidir. Zamon va makon bir-biri bilan chambarchas bog'liq xolda namoyon bo'ladi, ular bir-birisiz yashay olmaydi. Chunki personajning vaqti, umri aniq bir joyda, ma'lum vaqt ichida o'tadi. Uning ber necha soatlik, kunlik yoki yillarda kechgan hayoti, uchrashuvlari, shodligi-yu qayg'usi belgilangan makon va masofa bilan bog'liq bo'ladi.

Badiiy asarni tabiiy borliq va mantiqiylikka mustahkam bog'lab turuvchi ikki vosita mavjud. Ularning biri badiiy voqelik sodir bo'luvchi makon bo'lsa, ikkinchi makonda sodir bo'luvchi jarayonning zamonidir. Falsafiy jihatdan yondashsak, makon va zamon olam mavjudligining umumiy shakllaridan sanaladi. Adabiyotda hayot tasvirlanar ekan, undan badiiy o'zlashtirilgan makon va zamon munosabatlarni bir-biri bilan bo'lgan aloqasi xronotop deb yuritiladi.

¹ Куронов Д., Рахмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тафаккури тарихи очерклари. – Тошкент. 2008. 264-бет.

Badiiy makon va zamonning o'ziga xos tamoyillari epik va drammatik turlar miqyosida yetarlicha tadqiq etilgan, ammo lirik turdaga makon va zamon talqini adabiyotshunoslik ilmida o'zining to'liq yechimini topganicha yo'q.

Lirik turdagi xroiotopning ayrim xususiyatlarini Rauf Parni she'riyati misolida ko'rshymiz mumkin. Ma'lumki, lirik turda voqea emas (voqyeband she'rlar bundan mo'stasno-K.Q.), his-tuyg'u va kechinmalar zamzamasi tasvir etiladi, lekin aynan o'sha kechinmalar ham qandaydir kichik-kichik voqyealar silsilasida o'zining lirik maqomdaga tasvirini namoyon etadi:

Qaltirab iorlaydir bir chiroq g'arib,
Bir qushcha sayraydir ruhnim ichinda,
Bir qushcha yig'laydir meni ahtarib.

Qushchashshg sayrashi, yig'lashi, chiroqning porlashi kabi kichik hayotiy voqyelik parchalari bir umumiy mazmunning ro'yobga chiqishi uchun xizmat qilmoqda, ya'ni lirik qahramonning ko'ngil kechinmalarini obrazli tasvirlashni ifoda etgan. Bu o'rinda porlayotgan chiroq va sayrayotgan, yig'layotgan qushcha uchun konkret hayotiy makon va zamon shart emas, chunki ular hayotdan badiiy o'zlashtirilgan bo'lib, majoziy mazmunni tashishga xizmat etadi.

Ayrim adabiyotshunoslarning fikriga qaraganda, "Lirik asarlarda makon va zamon keng ko'lam va miqyosda tasvir etilmaydi, balki lirik qahramonning his-tuyg'ulariga chuqur singdirilib yuboriladi".¹ To'g'ri, lirik turda makon va zamon muallif yoki personaj tilidan batafeil tasvir etilmaydi, lekin boshqa turlarga nisbatan go'zalroq va jozibaliroq tasvirlanishi mumkin, unda hayot qonunyatlarini to'liq o'z aksini topishi mumkin:

Tong otmoqda. Tong' o'qlar otar.
Tong otmoqda, quyosh - zambarak.
Yaralangan Yer shari yotar,
Boshlarida yashil chambarak.

¹ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002, 136-бет.

Xassos shoir R.Parfi hayotning kichik bir oniy parchasini qalamga olar ekan, unda zambarak (quyosh)ning o'q (nur) otishi va bu o'q orqali Yerning yaralanishi (dunyodagi har bir mavjudodning hayotiyligi ta'minlanishi)ni mohiroka, nozik sezim va his bilan tasvirlaydi. She'rda makon mutloq aniq - u biz yashayotgan yer shari. Zamon - har doim sodir bo'luvchi musaffo tong.

Shoir o'quvchiga kuchliroq tasir ko'rsata olishi uchun "zambarak", "o'q", "yaralanish" kabi salbiy ma'nodagi so'zlardan mohirona foydalanib, ularni matn tarkibida ijobiy manoda qo'llay olgan. Bu esa asarni umrboqiylikka eltuvchi leksik kontrastni hosil qilgan. R.Parfi ijodida tongning o'ziga xos quyma obrazi bo'lib, u she'rlarining badiiy jozibadorligini taminlabgina qolmay, ijodkorning tasvir uslubini ham belgalashga xizmat qidali:

Yangi tong.

Tongda erib ketdi. Kecha.

Uyqusini quvib ko'chagang

Avtolar qirvkiya soyaib kechar.

Tong - asrlar mobaynida muntazam takrorlanib kelayotgan hayot hodisasi. Unda zulmat ustidan yorug'likning g'alabasi mujassamlashgan. Shu ma'noda shoir ijodida tong obrazi faqat lirik zamonni ifoda etmaydi. U o'zining butun sharafi bilan "kelajak umidi", "nurli istiqbol", "musaffo hayot" kabi mazmunni tashiydi. Yuqoridagi she'riy badda ham lirik makon va zamon aniq, ya'ni shahardagi tong otish jarayoni badiiy xronotopani o'zida aks ettirgan.

R.Parfi she'rlarida tong tasvirini berish bilan o'z asarlarini xronologik mezonlarga bo'ysundirmagan. Agar shunday bo'lganda edi, "tun", "kecha", "kunduz" kabi vaqt mazmunini tashuvchi obrazlarning ham o'ziga xos kartanalarini yaratishi kerak edi. Sherxonning ko'ngil sezimlariga tasir ko'rsatish uchungina "nurli tong"ning quyma obrazi yaratilgan She'r o'zida ezgulikni namoyon qilgani bois "Tongda erib ketdi kecha" kabi misralarda zulmatdan ko'ra nurli tongning poetik maqomini g'oyaviy jihatdan ustun qo'yiladi.

Lirik makon tushunchasiga R.Parfi she'riyati misolida yondashsak, inson yashab turgan zamin, tabiat, butun borliq, Ona Turkiston, lirik qahramon qalbi she'rxonni hayajonga soluvchi, chuqur falsafiy mushohadaga chorlovchi his-tuyg'uga to'yingan kichik- voqeliklarning sodir bo'luvchi makonlari ekanligiga amin bo'lamiz. Bular she'rda tasvirlangaya obyektlar emas.

Adabiyot hayot voqeliklarini badiiy tasvir etadi. Hayot adabiyotning qaysi turida tasvirlanishidan qat'iy nazar, unda makon va zamon munosabatlari asar mantiqiyligini, hayotiyligini ta'minlovchi asosiy unsuri bo'lib qolaveradi.

Xullas, makon va zamon kategoriyasi hamda uning R.Parfi she'riyatidagi tadqiqi quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. Makon va zamon tushunchalari badiiy adabiyotning doimiy poetik kategoriyasi hisoblanadi. Bu tushuncha badiiy asarning sujet unsurlari, kompazitsion birliklari bilan uzviy aloqada bo'ladi.
2. Makon va zamon muammosi falsafa va estetikaning, shuningdek, adabiyotshunoslikning ham muhim, ko'p tadqiq etilgan bo'lishigta qaramay hanuz muayyan yechimga kelmagan masalalardan biridir. Makon va zamon falsafada materiya mavjudligining asosiy shakllaridan biri bo'lgani singari estetik va badiiy adabiyotda ham badiiy voqelikning sodir bo'lish shaklidir.
3. Mazkur ishda Rouf Parfi shariyatini makon va zamon bilan bog'liq to'rt masala nuqtayi nazaridan o'rganishga harakat qildik:
 - a) har bir asardagi tuyg'ularni harakatga keltirgan siqiq voqelikning makon va zamonini aniqlash;
 - b) muayyan asarning Rouf Parfi she'riyati xronotopi silsilasidagi o'rnini belgilash;
 - c) muayyan she'rda aks etgan makon va zamonning real makon va zamonga munosabatini belgilash;
 - d) shoir she'riyatida aks etgan makon va zamonning uyg'unligini, izchilligini, shu makon va zamonning tasvir usullari bilan

mutanosibligini ta'minlashda ijodkor mahoratini aniqlash asosiy vazifalardan biri etib olindi.

4. Rauf Parfi she'riyatining makoniy va zamoniy elementlarini o'rganish, ularni ifoda etuvchi leksik komponentlarini aniqlash tadqiqotning oldiga qo'yilgan asosiy masalalaridan biri etib belgilandi.
5. Rauf Parfi she'riyatida asosiy tasvirga tortilgan tuyg'u va kechinmalarga bog'liq bo'lmagan biror bir detal, hatto so'z ham asarga kiritilmasligi tadqiq etish jarayonida o'rganildi.
6. Rauf Parfi she'riyatida xronikal tasvirda makon va zamonning aks etirilishi unda shoirning ijod monersiga xos bo'lgan badiiy olamning ifoda etilgani atroflicha o'rganildi.
7. Rauf parfi ijodida badiiy xronotopning assotsiativ tasvirda namoyon bo'lishi, shoir she'riyatida makon va zamonning ramziy obrazlarida ifoda etilganligi tadqiq etildi.

XXI asrda fan-teknika jadallashib rivoj topib bormoqda, shu jumladan, adabiyotshunoslik sohasida ham badiiy asarning mirko va makro olamini o'zida ifoda etuvchi har bir adabiy unsur jiddiy, ilmiy o'rganishni talab qiladi. Lirik turdagi makon va zamon kategoriyasining ilmi-nazariy jihatdan o'rganish bugungi kundagi adabiyotshunoslik ilmining dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 439 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Тошкент: Маънавият, 2008.-173 б.
3. Каримов И. Миллий истиқлол мафкураси - халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. - Тошкент: Ўзбекистон, 2000. - 32 б.

II. Ilmiy – nazariy adabiyotlar:

1. Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Тошкент. Ўқитувчи. 1996.– 344 б.
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. –Тошкент. Ўзбекистон. 2002. – 557 б.
3. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. –Москва. Художественная литература. 1975.– 390 с.
4. Белинский В. Танланган асарлар: рус тилидан таржима. –Тошкент. ЎзДАВнашр. 1995. –384 б.
5. Григорьев В. Поэтика слово. –Москва. Наука. 1979. –688 с.
6. Воҳидов Э. Шоиру шеър у шуур. Адабий ўйлар. –Тошкент. Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987. – 224 б.
7. Ёқубов Ҳ. Адибнинг маҳорати. –Тошкент. Фан. 1966. – 240 б.
8. Камол Ж. Лирик шеърятда композиция. —Тошкент. Фанб 1983. – 96 б.
9. Карпов А. Русская советская поэм. – Москва. Художественная литература. 1989.– 318 с.
- 10.Квятковский А. Поэтический словарь. – Москва. СЭ, 1966. –376 с.
- 11.Лотман Ю.М. Пробма сютета // Лотман Ю.М. Структура художественного текста. Москва. Искусство, 1970. –82 с.

12.Мамажонов С. Поэмада инсон ва замон // ратлар ва аҳатлар –
Тошкент. Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. 100 б.